

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**«Iqtisodiyot» fakulteti 5111017 – Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr ta'lim
yo'nalishi talabasi Abdullayev Jasurbek Abdijabborovichning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi mavzusini
muammoli ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi**

Rahbar:

Z.T.Raximov

Ish bajaruvchi:

J.A.Abdullayev

Qarshi – 2019 yil

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham innovasion yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim professor-o'qituvchisining vazifasi – ta'lim jarayonini talabalarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki ijodiy-kreativ fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Bu masalaning nechog'lik dolzarb ekanligi xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigida: “...o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodlarini joriy etish bo'yicha hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning echimi ustida doim ish olib boramiz”[1], - deya to'xtalib o'tdi. Ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun ularni doimo savol berishga undash lozim. Yo'q joydan savolning qanday paydo bo'lishini ko'rsatish, dars oxirida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilib berilishi zarur. Hozirgi davrda talabalarga ma'lumot va tavsiyalarning ma'lum to'plamini berish unchalik ahamiyatli emas, ularning ma'lumotlarni mustaqil olishi va o'z bilimiga aylantirishi uchun aniq yondashuvlarga ega bo'lishi muhimdir. Bunda muammoli ta'lim texnologiyasi qo'l keladi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida eng samarali o'qitish texnologiyalaridan biri muammoli ta'lim texnologiyasidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ta'lim texnologiyasi ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi – bu o'quv materialini talaba ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatishga qaratilgan texnologiyadir. Ta'lim jarayonida talabaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular ob'ektiv ravishda izlanishga va mantiqiy to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga da'vat etadi.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha to'plangan tajribalar asosida

muammoli o'qitishning mohiyati va mazmuni haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin. Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, talabalar o'zlari muammoni mustaqil echishga kirishishlari kerak. Shu sababli ham talaba uchun materiallar va topshiriqlar tizimi shunday tuzilishi kerakki, ular asosan, mustaqil fikr yuritishga va o'rganishga qaratilishi lozim.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Shuningdek, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan kasbiy faoliyat ijtimoiy hayotiy zaruriyat ekanligini chuqur anglagan holda o'quv va ishlab chiqarish jarayonlarida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning puxta o'zlashtirilishi malakali pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat ustuvor ta'limiy maqsadni amalga oshirishga yordam beradi.

Bu vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodning chuqur bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib, mamlaktimiz taraqqiyoti yo'lida halol mehnat qilishga har sohada jonbozlik ko'rsatishga o'rgatishni nazarda tutadi. Shunday ekan, rivojlanayotgan malakatimiz aynan fidoiy, o'z vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyat boshqarishini talab etib, ta'lim jarayonini shunga mos tarzda tashkil etishni taqozo etadi. Ayniqsa kasb-hunar ta'limi tizimida yosh avlodni insoniyat erishgan boy qadriyatlarga, milliy g'oya va milliy mafkuraga suyangan holda dunyoga yangicha ko'z bilan qaraydigan, o'z ishining ko'zini biluvchi etuk malakali kadrlarni tayyorlash, respublikamiz iqtisodchi-pedagoglari oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bunday vazifalarni astoydil bajaradigan, jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan iqtisodchi-pedagoglarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim sohasini isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish asosida mazkur masalani echishga qaratilgan. Jumladan, kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimi isloh qilindi, yangi o'quv-me'yoriy hujjatlar, zamonaviy o'quv

jihozlari va uskunalari bilan boyitildi. Iqtisodchi-pedagoglarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi, tajriba o'rganish uchun ularni xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalariga yuborish amaliyotidan keng foydalanish, chet el investisiyalarini jalb qilish, malaka oshirish markazlarida o'rindoshlik asosida dars o'tish ishlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. O'quv materialini o'quvchilarga etkazishda pedagogik texnologiyalardan, kompyuter grafikasidan, matematik modellaridan va masafaviy o'qitish tizimidan keng foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida malakali o'qituvchilardan dars o'tadigan fanini chuqur va puxta bilishini, o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va zamonaviy o'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanishini talab etadi. Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishida nazariy hamda huquqiy jihatdan asoslangan holda, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tub iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jadallashtirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo'lib, o'ziga alohida e'tiborni qaratishni talab etayotganligi, qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jarayonida bugungi kunning talablariga to'la javob beradigan tashkiliy huquqiy asosni yaratish, shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida ham bir qator ma'lumotlar va takliflar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishida “Qishloq xujaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi” mavzusini muammoli ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi ishlab chiqilib, o'qitishning nazariy, amaliy mashg'ulotlarini interfaol metodlar asosida loyihalash bo'yicha izlanishlar natijalari keltirildi.

1. Fan va mavzuning tavsifi

1.1. Kasb-hunar kollejlarda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining tutgan o'rni va fanlararo bog'lanishi.

Qishloq xo'jaligi sohasida doimo asosiy maqsadiga etishish uchun har xil turdagi mahsulotlar etishtiriladi, hamda shunga doir faoliyalar amalga oshiriladi, etishtirilgan mahsulotlar esa zarur talablarni qondirish uchun taqsimlanadi, eksport qilinadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini, birlashmalar, tarmoqlar mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan mazkur tadbirlar erkin bozor munosabatlari asosida bajarilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur.

“Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti” fannini o'rganish sohaga oid va tajribalar natijalaridan olingan nazariy va amaliy bilimlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, makroiqtisod, ya'ni mamlakat iqtisodini o'rganmasdan, o'qimasdan qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini, unda mavjud bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar, innovasiyalar, ularning natijalarini baholab bo'lmaydi. Iqtisodiy qonunlar, normalar, kategoriyalar, ulardan har birining mazmunini, harakat qilishini o'zlashtirmasdan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini oqilona va samarali amalga oshirish, mehnatni tejash va uning samaradorligi rivojlantirilishini aniqlash qiyin. “Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti” fanidan talab va taklif qonunlarini o'rganmasdan qishloq xo'jaligida qaerlarda, qanday mahsulotlarni qancha miqdorda etishtirish zarurligini to'g'ri aniqlash, bilish imkonsizdir.

Har doim o'zgaradigan, o'rtacha xarajatlar mazmunini, o'lchamini, tarkibini yaxshi o'zlashtirgandagina qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni, mahsulot tannarxini va ularni tejash yo'llarini oson o'zlashtirib olish mumkin.


Ishlab chiqarish vositalarini qaerdan, qanday qilib xarid qilish hamda etishtirilgan mahsulotlarni qachon, kimga, qanday qilib sotish va bu jarayonlarni

boshqarish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish nihoyatda muhim. Demak, talabalar o'zaro uzviy aloqador barcha fanlar mazmunini yaxshi o'rganishlari lozim.

Shunday ekan kasb-hunar ta'limi fanlar blokidagi «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun malakali kadrlar tayyorlab berishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda har bir jamiyat a'zosining oldida Bozor iqtisodiyoti qonunlari, uning O'zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonunlarni ishlab chiqarishga tadbiiq etishni bilishi ta'kidlanadi. Kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan malakali kadrlarning «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanini chuqur o'rganishi, shuningdek o'quvchilar tadqiqot ishlarida muayyan ko'nikmalarga, ushbu fanlar tizimida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi zarur.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani quyidagi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir.



1.1-rasm. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining fanlararo bog'liqligi

1.2. Tanlangan mavzuning dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaryvchi sohalarning rivojlanishiga e‘tibor jyda katta. Qishloq xo‘jaligi esa yangi texnikalap, ish qurollari, texnologiyalarsiz rivojlana olmaydi. Ushbu tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqarish faoliyatlarini mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Agrosanoat kompleksining birinchi (agrosanoat kompleksi sohalari uchun ishlab chiqapish vositalari ishlab chiqaruvchi) sohasining rivojlanishiga e‘tiborning yanada kuchayishi talab qilinadi. Buning uchun qishloq xo‘jaligida jahon amaliyotiga mos keladigan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Mamlakatimizning 2019 yildagi taraqqiyotining bosh hyjjati bo‘lgan ushbu Murojaatnoma o‘zining ma‘no-mazmyni, tarkibiy tuzilishiga ko‘ra g‘oyat serqirra va keng ko‘lamlidir. Unda, avvalo, o‘tgan 2018 yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshipilgan ishlar atroflicha tahlil qilinib, muhim hayotiy xulosalar ilgari surildi. O‘tgan yil tajribalari va kelgusida xalqimiz, mamlakatimiz oldida tupgan vazifalap asosida 2019 yil yurtimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb e‘lon qilindi. Murojaatnomada ushbu yildagi eng muhim maqsad va vazifalar aniq ko‘rsatib berildi[2].

Qishloq xo‘jaligining amalga oshipish aholining tupmush dapajasini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e‘tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasi o‘laroq, o‘ziga xoslik yillarida bozor iqtisodiyotini yupitish uchun zaryr huquqiy baza yaratildi va ulap muttasil takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston industpial-agrar mamlakat bulib, qishloq xo‘jaligi sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17 % ini ishlab chiqaradi va mehnatga yaroqli aholining 34 % ni ish bilan ta‘minlaydi. Bygyn 16 milliondan optiq qishloq aholisining daromadlari qishloq xo‘jaligi bilan bogliq. Qishloq xo‘jaligi maxsulotlapining 98 % sug‘opma dehqonchilik hisobiga tug‘pi keladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sug‘opiladigan eplar maydoni 4,3 mln.ga bo‘lib, ularning 55 % (2,3 mln.ga) nasoslar yordamida suv bilan ta‘minlanadi. Bu esa sug‘opish suvining tannaxini yanada oshiradi. Mavjyd shapoitlapda fepmep, dehqon xo‘jaligi va tomorqa erlaridan samarali foydalanish, mahsilotlar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish, Respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va eksport salohiyatini yuksaltirish eng muhim ustuvop vazifalardan bipiga aylanmoqda. Davlatimiz pahlbapi Murojaatnomasida suvdan foydalanish prinsiplarini qayta ko‘pib chiqish, mazkup shapoitlarga mos va maqbul tadbirlarni topish, tabiiy pesurslapdan foydalanishda eskirib qolgan qarashlardan vos kechish bo‘yicha jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarga alohida yrg‘y berdi[2].

Paxta yakkahokimligiga barham berildi, g‘allachilik tarmog‘i keskin kengaytirildi. Natijada g‘allachilik bilan shug‘yllanyvchi ixtisoslashgan maxsus tizim vujudga keldi. G‘alla upug‘chiligi keng yo‘lga qo‘yildi, g‘allachilikning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan zarur moddiy – texnika bazasi yapatildi. Chorvachilik tarmog‘i deyarli xususiylashtirildi. Mamlakatda etishtirilgan hosilni qayta ishlash darajasi va kimga qancha sotish masalalapi mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobiy hal qilinmoqda. Agrosanoat kompleksiga kiruvchi sohalarni imkon darajasida bir-biriga mutanosib amalga oshirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda. Bozop munosabatlarining rivojlantirilishi biz ychyn nisbatan yangi hisoblangan marketing, menejment iqtisodiy havfsizlik, moliya va soliq, inflyatsiya, monopoliyaga qarshi kurash va konkurensiyani amalga oshipish, bankrotlik, birja, shartnomaviy munosabatlar kabi ko‘plab iqtisodiy masalalarni chuqup o‘rganishni talab qilmoqda.

1.3. Kasb-hunar kollejlarda o'quv faoliyatini tashkil etish

O'qish mehnat faoliyatiga tayyorgarlikning o'ziga xos bosqichi bo'lib, o'quvchi-talabalarning asosiy faoliyat turidir. U bilimlarni egallashga qaratilgan, natijada zarur ko'nikma va malakalar egallanadi va o'quvchi-talabalar ta'lim mazmuni va maqsadini anglaydilar.

O'quv faoliyati murakkab jarayon bo'lib, didaktik jarayonda motivasiya bosqichidan, ya'ni bilimga bo'lgan ichki harakat qo'zg'atilgandan so'ng, amalga oshiriladi [17, 42]. Ta'lim mazmunini bilish, tushunish, tahlil qilish va umumlashtirish bosqichlari asosida bilim egallash o'quv faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi. Aynan ta'limning samaradorligi pedagog tomonidan didaktik jarayonni to'g'ri loyihalashtirish, ta'lim maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishishda didaktik operasialarni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Bunda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ular asosida ta'lim turlarini belgilash, didaktik maqsadlarni ijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish o'quv faoliyatini rivojlantiradi.

Didaktik jarayonda samarali o'quv faoliyatini tashkil etishda didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim, hamkorlik texnologiyalari, modellashtirilgan ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Umuman, o'quv faoliyatining maqsadiga erishish natijalari ko'rsatkichlariga qarab ikki guruhga:

- samarali o'quv faoliyati;
- samarasiz o'quv faoliyatiga bo'lishimiz mumkin.

Keling, samarali o'quv faoliyatini didaktik funksiyalarining o'ziga xos jihatlarini talqin qilaylik. Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida didaktik jarayonda, o'quvchi-talabalarning ta'lim mazmunini ijodiy o'zlashtirishi, bilishga qiziqishi va ehtiyoji ortadi. Binobarin, ta'lim yangi modulining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabaning o'z mehnati evaziga bilimni egallash malakasini shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyatini didaktik o'yin, muammoli, munozarali, hamkorlik texnologiyalari asosida tashkil etish o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini kuchaytirish, fanga qiziqish, bilimni kengaytirish xususiyatlarini tarkib toptiradi. O'quv faoliyatida ta'lim mazmuni asosida bahs, asosiy g'oya va echimlarni topishga

yo'naltirish, ijodiy, mustaqil tafakkurni shakllantirishga zamin yaratadi. O'quv faoliyatida erkin fikrlash darslari o'quvchi-talabalarning ilmiy dunyoqarashini, bilimga ehtiyojini, mustaqil ta'lim mazmunini o'zlashtirish xususiyatlarini shakllantirib boradi.

O'quv faoliyatini tashkil etishda maqsadlarning toksonomik qatorini to'g'ri belgilash, bunda umumiy maqsadlar asosida didaktik maqsadlarni to'g'ri tanlash asosiy rol o'ynaydi. Demak, samarali o'quv faoliyatini psixologik jihatdan quyidagicha talqin etishimiz mumkin:

- o'quv faoliyatini rejalashtirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish, keng ko'lamdagi bilimlar, tarixiy usullarda sistemalashtirish;
- o'z faoliyatini o'zi boshqarish usullarini egallash va yangisini topish;
- shaxsiy qiziqishni idora qiluvchi o'z diqqatini o'zi boshqarish usullarini egallash.

O'quv faoliyati bilish va idrok qilish bilan bog'liqdir. Bu jarayonlar ishtirok qilmasa, o'quv faoliyati namoyon bo'lishi mumkin emas.

Didaktik jarayonni loyihalashtirishni algoritmik asosda tashkil etish, ya'ni ta'lim mazmunini o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan intellektual operatsiyalarni bajarish o'quv faoliyatining asosini tashkil etadi [11]. Bu yo'nalishda ta'lim jarayonining modul dasturi, modul dars asosida ta'lim mazmunining o'quv faoliyatini elementlariga ajratish va u bilan bog'liq bir qismlarining maqsad-vazifalarini belgilash o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi. O'quv faoliyatining samaradorligi, o'quvchi-talaba shaxsidagi kognitiv xususiyatlarni quyidagi mezonlarda ko'ramiz.

- o'quv materialini faol qabul qilish;
- o'quv materialini o'zlashtirish usullarini egallash;
- ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'z oldiga topshiriq va vazifalar belgilash;
- o'z-o'zini nazorat qilish va baholash.

Aynan o'quvchi-talaba shaxsida ushbu mezonlarni shakllantirib borish o'quv faoliyatining bosh masalalaridandir. Demak, didaktik jarayonning yakuniy natijalari

asosida xulosa qilishimiz mumkinki, har qanday ta'lim jarayoni ham o'quv faoliyati bo'lavermaydi. Binobarin, shaxsning anglashilgan maqsad asosida bajaradigan ichki ruhiy va tashqi jismoniy harakatlari faoliyat deb ataladi.

Didaktik jarayonni o'quv faoliyati darajasiga ko'tarish zamonaviy pedagogik texnologiyaning bosh masalasidir. Aynan, zamonaviy pedagogik texnologiya samarali o'quv faoliyatini tashkil etishning asosidir. Har bir didaktik jarayonni tashkil etishda pedagogdan puxta tayyorgarlik ko'rish, belgilangan pedagogik tizim asosida loyihalashtirish hamda tanlangan ta'lim texnologiyalari, vositalari va shakllari asosida intellektual operasialarni amalga oshirish talab etiladi. Bu esa o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga zamin yaratadi. Samarali o'quv faoliyatini tashkil etish ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning zamirida o'quvchi-talaba dunyoqarashi tarkib topadi, egallangan bilim, ko'nikma, malakalar shaxs ma'naviyatiga aylanadi, e'tiqodi shakllanadi, jamiyatga, ijtimoiy tuzumga, atrof-borliqqa bo'lgan munosabati yuzaga keladi, ta'limning mohiyatini anglaydi, unga bo'lgan hurmat, e'zozlash xususiyatlari tarkib topadi. Binobarin, biz ta'limning tarbiyalovchilik rolini ustuvor deb qaraymiz, ammo, o'quvchi-talabalarda ta'limga hurmat hissini tarkib toptirish hamon e'tibordan chetda qolmoqda. Buning oqibatida ta'lim jarayoniga bepisand qarash, nomiga o'qish, ta'lim mohiyatini anglamaslik kabi salbiy yo'nalishlar yuzaga kelgani sir emas. Albatta, bunday salbiy yo'nalishning yuzaga kelishi ikki tomonlama, ya'ni o'quvchi-talabaning ta'lim jarayo-niga bo'lgan passiv munosabati hamda o'qituvchi tomonidan didaktik jarayonni pedagogik talablar asosida loyihalashtirmaslikdadir. Didaktik jarayonda bunday professional yondashish samarasiz o'quv faoliyatini yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonining natijalariga e'tibor bermaslik o'quvchi-talabalarda boqimandalik, vaqtni qadrlamaslik kayfiyatining shakllanishiga zamin yaratadi. Binobarin, didaktik jarayonning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan nazorat bosqichi, ya'ni o'quvchi-talabalarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishini amalga oshirish o'quv faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosi bo'lgan ta'limning samaradorligini namoyon etadi.

2. O'qitish metodikasining umumiy masalalari.

2.1. Didaktik jarayonni tashkil etishda talabalarning psixologik tayyorgarligi

Hozirgi kunda davlat va jamiyat tomonidan iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlashga yangi talablar qo'yilmoqda. Bu talablar, avvalambor, iqtisodiy ta'lim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabi asosida iqtisodchi-pedagogni tayyorlashga tegishlidir. Zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchi-talabalariga faqatgina bilim berish bilan chegaralanmay, ularning bilish faoliyatlarini boshqarishi, ularda onglilikni tarbiyalashi, bilimlarga qiziqishni uyg'otishi ham kerak. O'qituvchi doimiy ta'sirga ega bo'lgan murakkab ob'ekt bilan ish olib borgani uchun ham bu ta'sirning muvaffaqiyati uning psixologik va pedagogik madaniyatiga, tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini anglay olishiga, o'quvchi-talabalarga individual yondasha olishiga uzviy bog'liq.

Talabalarni bo'lajak iqtisodchi-pedagog kasb faoliyatiga tayyorlashda psixologik–pedagogik fanlarni o'qitishga muhim ahamiyat berish lozim bo'lib, ular talabalarni pedagogik jarayonga olib kirib, pedagogik faoliyatning ilmiy asoslari, ta'lim-tarbiya berish mahoratini egallashga yordam bersin. Professor M.G.Davletshinning ta'kidlashicha, psixologik-pedagogik tayyorgarlik tizimi talabalarning o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni egallashga, pedagogik faoliyat metodikasi zamonaviy pedagogik texnologiya va texnikasi bilan qurollantirishga qaratilgan.

Pedagogik kadrlar tayyorlash tajribasini o'rganishning ko'rsatishicha, oliy ta'lim muassasalari har bir talaba shaxsini shakllantirish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, bunda psixologiya o'quv fanlarining o'rni ulkan. Psixologiya fanlarini o'qitish jarayonida talabalar bilimi boyibgina qolmay, balki shaxsni takomillashtirish, o'zlarida kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni rivojlantirish uchun ham keng sharoitlar yaratiladi.

Psixologik tayyorgarlik jarayoni talabalarning o'z-o'zini anglashi uchun ham muhim. Bunda talabalar o'zlarining bilish faoliyatlaridagi ijobiy tomonlarni va kamchiliklarni, temperament, xotira, diqqat xususiyatlarini aniqlaydilar. Bu esa talabalarning o'z ijobiy xususiyatlarini yanada takomillashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, aqliy imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, pedagogik faoliyatda shaxsning kommunikativ xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Shu tufayli bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchini tayyorlashda muloqotning ahamiyati juda katta. Muloqot o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy oliy ta'lim muassasalaridagi tayyorgarlik davrida bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchi shaxsining ijtimoiy va kasbiy faolligini tarkib toptirish uchun zarur sharoitlar yaratadi. Biroq, ko'p sonli tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'pchilik talabalar va yosh o'qituvchilar maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejarida pedagogika amaliyotini o'tish yoki bevosita pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchi-talabalar bilan bo'ladigan muloqotda qiyinchiliklarni his qiladilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilishning asosiy yo'llaridan biri talabalarni kasbiy pedagogik muloqotga o'rgatish hamda ularga oliy ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat doirasida individual psixologik maslahatlar berish. Muloqotda ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlikni amalga oshirish zarur. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchilarni pedagogik muloqotga nazariy jihatdan tayyorlash uchun iqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida muloqot va pedagogik muloqot psixologiyasi bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish lozim. Amaliy tayyorgarlikni esa muloqotga o'rgatishning turli xil vositalari yordamida amalga oshirish mumkin. Bu vositalarga o'rgatuvchi ishbilarmonlik o'yinlari, pedagogik masalalarni hal qilish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va hisobotlarni keltirish mumkin.

Bu vositalardan tashqari faol ijtimoiy-psixologik ta'limning metodlarini qo'llash, psixotrening usullaridan ham foydalanish mumkin. Ko'rsatib o'tilgan vositalar o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'rtasidagi muloqot bo'yicha faqat akademik bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki boshqalarni bilish qobiliyatlarini

takomillashtirish hamda o'z-o'zini anglashning kengayishi bilan bog'liq bo'lgan refleksiv bilim va malakalarning rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik ta'lim jarayonida shaxsning insoniylik, ishonch, ochiqlik, emosional yaqinlik, samimiylilik, empatiya, teng sherikchilik kabi muhim sifatlari namoyon bo'ladi [14, 68].

Shunday qilib, iqtisodiy oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan o'zlashtirilgan psixologik bilimlar ta'lim jarayonida ikki xil ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o'z-o'zini anglash (bilish), o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashning asosi bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, bu bilimlar bo'lg'usi amaliy faoliyat uchun zaruriy bilimlardir.

Demak, bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchilar, iqtisodiy oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasb faoliyatiga tayyorlashda psixologik tayyorgarlik muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, talabalarni psixologik jihatdan tayyorlashning vazifalari nafaqat ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki bu bilimlarni bo'lajak pedagogik faoliyatda amaliy jihatdan qo'llashga ham o'rgatishdir. Shuningdek, psixologik bilimlar bo'lajak iqtisodchi-pedagoglar shaxsining intellektual bilish, kommunikativ, perseptiv, tashkilotchilik kabi xislatlarini rivojlantirishga imkon yaratishi lozim. Biroq, ta'kidlab o'tilgan vazifalarni hal qilish uchun iqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida psixologik fanlarni o'qitishni tubdan o'zgartirish: psixologiyani o'qitish metodikasini, psixologiya bo'yicha boshqa fanlar tuzilishi va mazmunini takomillashtirish, nazariy bilimlar qismini maktab, akademik lisey va kasb-hunar kolleji hayotiga yaqinlashtirish talab qilinadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan iqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida saboq beruvchi professor-o'qituvchilar tarkibi, psixologik hamda pedagoglarning oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishga bo'lgan ijodiy munosabatlariga bog'liq.

2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi pedagogik-psixologik tajribalar

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lgan ayrim pedagogik hamda psixologik tajribalarni foydali ma'lumotlar sifatida eslatib o'tishni lozim topdik. Ta'lim oluvchilarni o'zlashtirmasliklarining bosh sababi – ularning savodlari (o'qish, yozishlari) yomonligi bo'lib, buning pedagogik sababi ularda tezkor xotiraning etarli emasligi hisoblanadi. O'quvchi-talabalarning umumiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining asosi diagnostika va o'z-o'zini diagnostika qilishdir.

Hozirda tegishli pedagogik texnologiyalarni to'liq amalga oshirish natijasida quyidagicha ko'rsatkichlarga erishilgani ma'lum:

bir daqiqada: 120 ta so'z o'qish (2-3-sinf); 60 ta harf yozish (3-sinf); orfografik savodxonlikni 2 marta oshirish (1-3, 5-7 sinf-lar); o'zlashtirmovchi o'quvchilarning (me'yor darajasidagi) 90 foizini qayta so'zlashga o'rgatish. Hisoblash qobiliyatlarini 30 raqam darajasigacha takomillashtirishga (3-5 sinflarda) erishilgan.

Hozirda ta'lim berish tamoyillari ma'lum, lekin qonunlari ma'lum emas. Shu sababli ta'lim berish hamda o'qib, o'zlashtirish qonunlarini aniqlash yo'nalishida, avvalo, insonni, uning psixologik, fiziologik va boshqa xususiyatlarini o'rganish davom etmoqda. Bu sohadagi ayrim natijalar quyidagilardan iborat:

Har xil mashg'ulot turlarining imkoniyatlari har xil. Masalan, yangi axborotni talaba-o'quvchilarga qanday shakllarda etkazilishiga bog'liq ravishda bir yil davomidagi vaqt oralig'ida shu axborotning esda saqlanadigan qismi quyidagicha foizlarni tashkil qiladi:

2.2.1-jadval. Axborotni etkazish shakllari

| Axborotni etkazish shakllari | 3 soatda, % | 3 kunda, % | 1 yilda, % |
|------------------------------|-------------|------------|------------|
| Ma'ruza, hikoya | 70 | 10 | 3 |
| Ko'rsatish, namoyish | 72 | 20 | 13 |
| Ma'ruza va ko'rsatish | 85 | 65 | 33 |
| Hikoya, ko'rsatish, amaliyot | 98 | 95 | 75 |

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ladiki, yuqori o'zlashtirishga erishish imkoniyatiga o'quvchi-talabalar tomonidan mashqlar bajarish, so'zlash, ko'rish bilan bir vaqtda ko'proq sezgi a'zolari ishtirok etishini ta'minlovchi boshqa shakl va usullarni qo'llash orqali erishiladi.

O'qish tezligi. Matn qancha tez o'qilsa, shuncha yomon o'zlashtiriladi, lekin matndagi 50-75 % so'zlarning ma'noga ta'siri kam.

O'qish tezligi bilan eslab qolish tezligi farqli. Eslab qolish sekinroq amalga oshadigan jarayon.

Tez o'qish qoidalari: ko'z har ikkita so'zdan keyin to'xtaydi. Bunda satrni oxirigacha to'xtamay, ya'ni bir qarashda ko'ra oladigan, so'ngra satr o'rtasidan tik yurib, bir necha satrni birdaniga ko'ra oladigan bo'lguncha maxsus mashqlar bajarib boriladi. Bular quyidagilar:

Lablarni qimirlatmaslik, so'zlarni ovoz chiqarib o'qimaslik.

Bir daqiqada 250-500 so'z, alohida hollarda 700 va undan ortiq so'z o'qish mumkin.

Ta'lim samaradorligining ayrim omillari:

Darslar tartibini belgilashda dastlabki soatlarga nisbatan murakkabroq fanlarni qo'yish lozim, masalan: matematika, statistika, chizmachilik, tarix, fizika, xorijiy tillar.

O'qish vaqti: kechqurun mexanik yodlashga yaqin mashg'ulotlar, ya'ni she'rlar, formulalar, xorijiy tildagi so'zlarni o'rganish yaxshi natijalar beradi. Bundan kechqurun yod olib, ertalab takrorlash oralig'idagi uzoq vaqt yaxshi yodlashga imkon beradi.

Lekin individual xususiyatlar turlicha o'zgarishlarga asos bo'ladi.

Faol o'qish yuzasidan eksperiment: bunda birinchi guruhdagi o'quvchi-talabalar berilgan materialni 4 marta o'qib chiqdi, 2-guruhdagilar 2 marta o'qib, 2 marta gapirib berdilar. 2-guruh natijasi yaxshiroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Materialni faol o'zlashtirish yuzasidan vazifa: darslikning bir bo'limini o'qib, uning mazmunini erkin ravishda og'zaki va yozma ifodalash kerak. Bu vazifani

bajarish uchun, albatta, diqqat bilan o'qish va qayta gapirib berish mashqlarini bajarish kerak.

O'quvchi-talabalar yakka holda o'qigandan so'ng, 3-4 kishilik guruhga gapirib berish (o'zini tekshirish), so'ngra mazmunini muhokama qilish yaxshi natija beradi.

O'quvchi-talabaning faolligi. Faollik ortiq yoki past darajalarda bo'ladi. Ortiq daraja aslida hayajonlanish bo'lib, o'zlashtirish sifatini pasaytiradi.

Faollik darajasi bilan o'zlashtirish orasida bevosita daxldorlik yo'q. Past faollik, albatta, past, yuqori faollik esa, albatta, mustahkam bilim beradi, deb ta'kidlash mumkin emas.

Samarali o'qish uchun faollik turlicha, lekin har kim uchun optimal bo'lishi mumkin.

Misollar: 1) biror manzilni izlashda o'sha joylarni yaxshi biladigan odam boshlab borsa, eslab qolish qiyinroq bo'ladi, lekin agar o'zingiz manzil bo'yicha qidirib topsangiz, to'liq eslab qolasiz.

2) o'quvchi-talaba uy vazifasini bajarishga qiynalganda kattalar ishlab bersa, u passiv bo'ladi, ya'ni hech narsa o'rganmaydi, lekin uni bajarish yo'li tushuntirib berilsa, o'quvchi-talaba faol bo'ladi, ya'ni topshiriqni o'zi mustaqil bajarishni o'rganadi.

3) tengqurlari bilan janjallashib, janjalni o'smir o'zi hal qilmay, ota-onasiga shikoyat qilishi uning passivligini bildiradi.

Bunda agar ota-ona bahsga faol aralashib, masalani hal qilsa, uni qiyin holatlarda mustaqil ish yuritishga, ya'ni hayotda to'g'ri yo'lni topishga o'rgata olmaydi.

2.3. Talim jarayonida talabalar motivasiyasini oshirish zaruriyati

Motivasiya ta'lim natijalari uchun katta ahamiyatga ega. Motivasiya – odamni o'qishga yoki biror harakatni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Bolalar, o'smirlar va kattalarda o'qishga undovchi sabablar turlicha bo'ladi. Masalan, bolalar, o'smirlarda uchraydigan ota-onasi, o'qituvchisi uchun o'qiyapman deb o'ylash o'qishga tayyor emaslik bo'lib, bu past o'zlashtirishga olib keladi.

Talabalarda bunday sabab anglab etilgan, shuning uchun ularning o'zlashtirishi yaxshi. Talabalarning o'quvchilardan yoshi katta bo'lgani uchun ulardagi motiv o'qishga nisbatan to'g'ri munosabatni hosil qiladi. Bundan eslab qolish darajasining motivga bog'liqligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, imtixonidan muvaffaqiyatli o'tish uchungina yod olish ijobiy natija bermaydi. Kelgusida o'zlashtirilgan bilimdan faol foydalanish uchun o'qish, o'rganish va eslab qolish ijobiy motiv bo'lib, bunda ushbu maqsadning o'zi yuqori samara beradi.

Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchi-talabani o'qishga nisbatan befarqligi hamma harakatimizni yo'qqa chiqaradi.

Motivasiya omillari o'quvchi-talabani bilim olishga undovchi sabablar hisoblanadi. O'qish qobiliyati ko'p ko'rsatkichlardan tashkil topadi. Ular yoshga muvofiq o'zgarib boradi. Masalan, bolalar, o'smirlar tezroq o'qiydi, uzoqroq yodda saqlaydi. “Yoshlikda o'rganilgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir”, deb bejiz aytilmagan.

Agar o'quvchi-talabalarda motiv jiddiy anglangan bo'lsa, ularda tayyorlik ortib, juda yaxshi o'qishlari mumkin.

O'quvchi-talabani ta'lim jarayonida o'z kamchiliklari va yutuqlarini yaqqol anglashi ijobiy natijaning jiddiy asosi hisoblanadi. Ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini o'zgartirish uchun o'quvchi-talaba nimani yaxshi, nimani yomon bajarganini bilishi kerak.

Uning yutuqlarini maqtash, salbiy holatlarda esa tanbeh berish kerak. O'z o'rnida va to'g'ri maqtov o'quvchi-talabada o'z kuchiga ishonch hosil qilishga yordam beradi. Lekin maqtov oshirib yuborilsa, salbiy holatlarga sabab bo'ladi.

E'tiroz ham, ayniqsa, o'zini yuqori baholovchiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Lekin muntazam muvaffaqiyatsizliklardan ta'lim oluvchining ruhi tushib ketadi, buni hisobga olish kerak.

O'qishdagi muvaffaqiyat, yaxshi hatti-harakat qanchalik tez rag'batlantirilsa, shunchalik samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tanbeh ham xuddi shunday natija beradi. Tanbehni kechiktirish natijasida salbiy xulq tezda mustahkamlanadi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning xavfli joyi – kutilmaganda salbiy xulq tashqi ko'rinishi “ijobiy” natija berib qolishida hisoblanadi. Bunda ana shu xulq o'quvchi-talabada salbiy ko'nikma hosil qilishi mumkin.

Maqtov va tanbeh me'yori. Faqat maqtash yoki tanbeh berish bilan yaxshi xulqni mustahkamlash yoki salbiy xulqni yo'qotish mumkin emas. Odam o'zi uchun ijobiy natija bermagan xulqdangina voz kechadi. Masalan, o'quvchi-talabaning axloqqa zid harakatiga uning tengdoshlari faqat kulgi bilangina baho bermasalar, bunday o'quvchi-talabalar intizomsiz harakatlari bilan boshqalarning e'tiborini torta olmasalar, ularda salbiy harakatlar istagi yo'qoladi.

O'quvchi-talabaning yaxshi sifatlarini ochib, uni tez-tez maqtasak, undagi salbiy xislatlarni engish ehtimoli ortadi. Intizomsiz o'quvchi-talabadagi ijobiy sifatni sinfdosh va guruhdoshlarining diqqat markaziga qo'yish bilan uni yaxshi tomonga burish ehtimoli ortadi. Har bir insonda ijobiy sifatlar bor, lekin uni ko'pincha orttirilgan salbiy ko'nikmalar yopib yuboradi. Ana shuning uchun ham har bir o'quvchi-talabadagi ilgari mavjud bo'lgan ijobiy jihatlarni topish va o'z vaqtida rivojlantirib borish hayotiy ahamiyatga ega.

Ayrim pedagogik qoidalar. O'qishga o'rganish go'daklikdan boshlanadi. Bunda ota-onalarning o'zaro va bolalar bilan munosabatlari jiddiy ahamiyatga ega. Ilk emosional taassurotlar o'spirinning keyingi hayotida muhim iz qoldiradi. Bu yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Chunki “Qush uyasida ko'rganini qiladi”.

Bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan ota-ona hamkorligi zarur. Bog'cha bola tarbiyasida ota-onaga yordam, xolos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi.

Bolaning o'qishga munosabati, tayyorligi oiladagi muhitga bog'liq. Bolalarga ma'lum o'yinlar o'rgatish, ularning uydagi doimiy vazifalarini belgilash, yoshiga mos talablar tizimini o'ylab belgilash ularni maktabga tayyorlashga va kelgusi rivojlanish yo'lini belgilashga xizmat qiladi.

O'smirga qo'yilgan tarbiyaviy talablar, agar ular bola tomonidan qabul qilinsagina, natija beradi. Shuning uchun bu talablar maqsadga muvofiq va bola uchun mazmunga ega bo'lishi kerak. Aks holda bola faol qarshilik ko'rsatadi.

O'qishdagi qiyinchiliklarni engish va ko'p takrorlanuvchi xatolarni yo'qotishda, o'smirdagi biror ijobiy sifatga tayanish yaxshi natija beradi. O'smirda qancha ko'p yaxshi sifatlarni topsak va rag'batlantirib borsak, ulardagi salbiy sifatlarni shuncha tez bartaraf qila boramiz.

O'smirning maktabdagi yutuqlariga sherik bo'la bilish, ya'ni u bilan birgalikda xursand bo'lish, agar qiyinchiliklar bo'lsa, ularni engish uchun unga yordam berish zarur. Bunda ota-onalar o'smir yaxshi o'qigan taqdirda ham, maktab (kollej va oliy o'quv yurti ma'muriyati) bilan muntazam aloqada bo'lishlari lozim.

O'smir har bir qilgan ishidan quvona olsa, topshiriq va vazifalarni bajarishi odat tusiga aylanadi.

O'smirning jiddiy masalalarga doir savollarini taqiqlamaslik kerak. Bu uning kelajakdagi ijtimoiy, biologik hayotini belgilovchi masaladir. Shuning uchun ham uning savollariga aniq va qoniqarli javob berish kerak.

O'smirlar bilan istalgan mavzuda so'zlashish kerak. Ular bilan erkin muloqot o'smirning sizga bo'lgan ishonchini oshiradi. U bilan suhbatlashishni turli bahonalar bilan paysalga solmang. Chunki vaqt o'tib, kechikishingiz boshqalar o'smirga noto'g'ri fikrni singdirishi, bunga ishontirishi mumkin.

O'smirni juda yoshligidan boshqa jinsga nisbatan to'g'ri munosabatga o'rgating. Bu haqdagi hamma savollariga javob bering, lekin savoldan tashqariga chiqmang.

O'smirlarning sizga ishonishini istasangiz, siz ham ularga ishonch bilan munosabatda bo'ling, lekin nazoratni unutmang. Muloqotdagi do'stonalik, o'smir ehtiyojlarini tushunish, yaxshilik istovchi munosabat uning tarbiyasida chinakam mo'jizalar hosil qilishi mumkin.

O'smirlarga axloqiy nasihatlar qilmang, ular buni idrok qilmaydilar. Buning o'rniga ibrat, o'rnak bo'ladigan jonli misollardan foydalaning.

Qayta o'qish yangidan o'qishga nisbatan doimo murakkab. Bunda ehtiyojga muvofiq ravishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- bilimlarni o'zlashtirish;
- ayrim ko'nikmalarga o'rgatish.

Qayta o'qishning bosh asosi uning zarur ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilishdan iborat. Bunda ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishga jiddiy kirishish, qayta o'qishga sabab bo'lgan o'zgarishlarning to'g'riligiga va zarurligiga ishonish, yangilikni o'rganishga xohish, istak bo'lishi zarur.

Qayta o'qish ehtiyoji turli sharoitlarda turlicha amalga oshiriladi. Masalan, uyda o'qish, sanashni o'rgangan o'smirga maktabda xuddi shularni boshqa usulda o'rgata boshlanishi ham qayta o'qishdan iborat bo'ladi. Bunday hol o'smir uchun o'ziga xos qiyin kechadi.

Yangi ish usuliga, yangi texnikadan foydalanishga o'qish yoki yangi kasbga o'qish – qayta o'qishning asosiy shakllari hisoblanadi.

Bilimlarni o'zlashtirish (ta'lim olishda) faqat xotira hususiyatlari emas, balki shaxsiy qobiliyatlar, fikrni jamlash, maqsad hamda tirishqoqlikka ham bog'liq.

Maqsadga intiluvchanlik zaruriy sharoitlardan biri, bunda o'rtacha qobiliyatlar ham ko'proq va mustahkamroq o'zlashtiradilar.

Tejamli o'zlashtirish usuli har kimda har xil.

Yoshlar formulalar, xorijiy so'zlar va shu kabilarni tezroq o'zlashtiradi. Lekin kattalar ko'p ko'rsatkichlar bo'yicha oldinda bo'ladilar. Chunki ular yaxshiroq motivlarga ega. Masalan, savodsizlikni tugatish o'qishlari rivojlanayotgan mamlakatlardagi katta yoshdagilar ham o'qish, yozishni (ko'pincha, o'smirlardan tezroq) o'rgana olishlari bu fikrning to'g'riligiga ko'rsatadi.

2.4. Talabalar bilim darajasini oshirish omillari

Ta'lim jarayonida talabalar bilimi, fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish uchun ularning esda saqlash qobiliyati, xotirasi nihoyatda muhimdir. Xotirani doim mashq qildirish kerak, aks holda u tarqoq bo'la boshlaydi. O'qish uchun aqliy va jismoniy qobiliyatlar tengqur katta yoshdagilar orasida o'zaro katta farq qilishi mumkin. Bunda shaxsning ijtimoiy, oilaviy ahvoli, ma'lumoti, kasbi, o'z kasbiy darajasini, turmush tarzini oshirish istagi, imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu biologik yosh xususiyatlaridan ko'ra ahamiyatliroq bo'ladi. Shuning uchun yosh fazalarini shartli ajratish to'g'riroq.

Biologik o'zgarishlarga ijtimoiy sharoitlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. 82 yoshgacha (o'rtacha 49) odamlarga “Birinchi marta o'zingizni qachon qaridim deb his qilgansiz?” “Qaridim deb o'ylashingizga nima sabab bo'lgan?” kabi savollar berilganda, ko'pchilik “jismoniy his qilishga”, ozchilik “ruhiy his qilishga” asoslanib, qaridim deb hisoblaganlari ma'lum bo'lgan. Bundan odam o'zini necha yosh his qilsa, uni shuncha yoshda, deb hisoblash mumkin.

Har bir davrga xos xotira xususiyati, fikrlash qobiliyati mavjud bo'lib, bu davrlar quyidagicha shartli belgilanadi:

O'smirlik 18-20 dan 25-30 yoshgacha.

O'rta yosh 25-30 dan 45-50 yoshgacha.

Katta yosh 45-50 dan 65-70 yoshgacha.

Keksalik 65-70 dan yuqori.

“Rolli” xulqqa o'rganish. Yosh ulg'aygach, “rolli” xulq hosil bo'la boshlaydi. Har bir yosh davriga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiq rolli xulq me'yorlari mavjud. Yosh rollari jins rollari bo'lib ham ajraladi.

Qiz bolalar uy ishlariga ertaroq jalb qilinadi, natijada ularda qo'yilgan maqsadni tushunish tezroq va yaxshiroq shakllanadi. O'g'il bolalarga ko'proq erkinlik berilishi o'yin uchun ko'p vaqt sarflashlariga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy rollar: jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy mezonlarga muvofiq, madaniyat sohasi vakillariga xos kasbiy, milliy va boshqa rollar mavjud. Bunday rollarni o'quvchi-talaba o'rganib boradi va o'zi istagan hamda uddalagan darajada o'ynaydi.

Masalan: Yangi Gvineyadagi “chambuli” qabilasida ro'zg'or boshlig'i ayollar, erkaklar esa asosan, ayollar bajaradigan ishlar bilan band bo'ladi. Bu ular uchun tabiiy hol bo'lib, shu qabiladagi ijtimoiy mezonlardan kelib chiqqan.

Yosh davrlaridagi rolli xulqlar

Yoshlik davrida kasbiy, oila qurish, ijtimoiy vazifalarning o'sib borishi muammolarini hal qilish bilan bog'liq rolli xulqlar hosil bo'ladi.

O'rta yosh davrida jamiyat oldidagi mas'uliyat, ijtimoiy faollik, ixtisos, kasbiy darajani oshirish kabi muammolar ko'ndalang bo'ladi.

Keksa yosh davrida jamiyatning kasbiy va ijtimoiy faol a'zosi bo'lgan shaxsda jismoniy kuchlar va intellektual imkoniyatlar susayishi bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi.

O'qishdagi muvaffaqiyatlar quyidagi omillar bilan bog'liq:

- shaxs muammolari;
- oiladagi ahvol;
- o'qituvchining mahorati;
- atrof-muhit omillari;
- o'quvchi-talabaning bilim olishga tayyorligi.

40-50 yoshli kishilarda xotira kuchsizroq bo'lsa ham, ular yaxshi o'qishlari mumkin, chunki kasbiy xotira yaxshi rivojlangan bo'ladi. Kasbga tegishli narsa yaxshi o'zlashtiriladi. Ya'ni, kasbiy ta'lim davom ettiriladi.

Muvaffaqiyatli ta'limning 2 ta omili: o'qishga qiziqish va unga tayyorgarlik kattalarda bolalarga nisbatan yaxshi shakllangan.

Inson hayoti davomida ta'lim olish omillari “siljib” boradi. Kattalarda xotira yomon bo'lsa ham, qiziqish katta bo'ladi.

Qobiliyatlar. Odamning meros bo'lgan va tug'ma qobiliyatlari orasidagi farqqa e'tibor berish kerak.

Urug'langan tuxum hujayra meros bo'lgan belgilar, ya'ni genlarni tashuvchi bo'ladi. Buni meros bo'lgan belgilar deyiladi.

280 kunga yaqin bo'lgan homila davrida esa muhit homilaga muntazam ravishda ona organizmi orqali ta'sir ko'rsatib boradi. Natijada meros bo'lgan belgilar ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar bola tug'ilgandan keyin tug'ma belgilarga aylanadi. Psixologlar shu sababdan meros bo'lgan belgilarga emas, tug'ma belgilarni ko'proq hisobga oladilar. Bu esa tarbiyaga homila davridan e'tibor berish lozimligini tasdiqlaydi.

Masalan, aqli zaiflikning kretinizm deb nomlangan alohida shakli homila davrida bo'lajak onadagi qalqonsimon bez faoliyatining pasayishidan hosil bo'lishi mumkin. Kretinizmning bu turi meros bo'lgan emas, tug'ma, ya'ni bola tug'ilguncha davrda orttirilgan hisoblanadi.

Tug'ilgandan keyin turli tashqi omillar ta'sirida hosil bo'lgan belgilar orttirilgan belgilar deyiladi. Bunga bolada tug'ilgandan so'ng shakllanib boradigan ijobiy yoki salbiy shaxsiy sifatlar, odatlar, axloq va boshqalar misol bo'la oladi.

Lekin, bu qobiliyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy ahamiyat kasb etmaydi. Bu fikrni quyidagi misol tasdiqlashi mumkin.

Axloq tuzatish koloniyasi boshlig'i shu koloniyaga tushgan o'smir yoshdagi mahkumga bir kuni bankdan order bo'yicha katta miqdordagi pulni olib kelishni topshiradi. Eksperiment yaxshi tugaydi, sobiq o'g'ri pullarni koloniyaga olib keladi va shu kundan boshlab uning shaxsi shakllanishida qat'iy o'zgarish yuz beradi.

Bu erda shu o'zgarishning sababi ushbu qo'llangan metodmi yoki boshqa sabablar ham bormi? Bunga asosiy sabab shu pedagogik metod natijasida o'smirda hosil bo'lgan ichki ziddiyatdir. Bunda odat bo'lib qolgan o'g'rilikka moyillik bilan tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriq orqali o'smir shaxsiga berilgan juda kutilmagan yuqori bahoning namoyish qilinishi o'rtasidagi ichki ziddiyat pishib etilgan. Bu holatda ko'p sonli shartlar, xususan, unga pullarni olib kelish qanday topshirilgani, bolaning tarbiyachiga munosabati, koloniyadagi ruhiy muhit hamda o'smirning shaxsiy sifatlari tarkibi rol o'ynagan. Aynan shu (boshqa emas!) shartlarning mos tushgani ushbu harakatga undovchi sababni belgilagan.

Bular hammasi shaxsning tug'ma belgi va moyilliklariga ta'lim jarayonida hal qiluvchi ahamiyat berish qanchalik noto'g'riligini bildiradi.

Savollar yopiq va ochiq bo'ladi.

Ochiq savol: qor va muz nima bilan farqlanadi?

Yopiq savol: Nima tezroq eriydi: qormi yoki muzmi?

Yopiq savolga asosan "ha" yoki "yo'q" degan javob talab qiluvchi savollar kiradi.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, ob'ektiv jihatida doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin, ayniqsa, ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli.

Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Insonda bilimlar hosil quluvchi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko'rish a'zosi orqali – 83 %;

Eshitish a'zosi orqali – 11 %;

Hid bilish a'zosi orqali – 3,5 %;

Teri sezgisi orqali – 1,5 %;

Ta'm bilish a'zosi orqali – 1 %;

Jami – 100 %.

Turli sezgi a'zolarimiz ishtirokida o'zlashtirilgan axborot oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlarda eslab qolinadi:

O'qiganimizning 10 foizi.

Eshitganimizning 20 foizi.

Ko'rganimizning 30 foizi.

Ko'rgan va eshitganimizning 50 foizi.

Gapirganimizning 80 foizi.

Gapirgan va amalda bajarganimizning 90 foizi.

Bundan insonning eslab qolish qobiliyati axborotni qaysi usullarda va qaysi sezgi a'zolari vositasida o'zlashtirganiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Unutish. Eng so'nggi o'rganilgan narsa ertaroq unutiladi. Demak, so'nggi o'rganilganni ko'proq takrorlash zarur. Buni, ayniqsa, o'qiyotgan yoshi kattalar bilishi zarur.

Eslab qolish jarayonini faollashtirish uchun materialni ovoz chiqarib o'qish foydali. Ovoz juda past ham, juda baland ham bo'lmasligi kerak. Sababi: past ovozda o'quvchi-talaba e'tibori matndan chalg'ishi mumkin, baland ovozda esa o'z ovozigiga diqqat qaratib, ma'nodan uzoqlashish mumkin.

O'rtacha baland ovozda matnni akustik idrok qilish va tilning harakatlanish faoliyati eslab qolishga yordam beradi.

Shunday qilib, ovoz chiqarib o'qish, so'zlarni o'rtacha baland aytish (ataylab qattiq yoki past ovzda emas) kerak.

Sxemali (tizimli) eslab qolishga o'qilgan materialning rejasini tuzish yordam beradi. Bunda asosiy qoidalar, dalillarni ajratish kerak. Asosiysini xotirada mustahkamlash yoki o'zi ishlab chiqqan tizimda yozish kerak. Asosiy qoidalarni turli ranglarda ajratish juda yaxshi yordam beradi. Lekin asosiysini to'g'ri ajrata bilish zarur, buning uchun kitob bilan to'g'ri ishlashni o'rganib borish kerak.

So'ngra o'rganilayotgan materialni kichik bo'laklarga ajratib, takrorlash (butun bo'limni emas) yaxshi natija beradi, vaqtni ko'proq tejaydi, o'zlashtirish sifatini oshiradi. O'qilgan materialni birdaniga emas, bosqichma-bosqich o'rganish va takrorlash yaxshiroq natijalar beradi.

O'quv fani materialini bir kun emas, bir necha kun takrorlash kerak. Masalan, 24 ta mashqdan iborat topshiriqni 3 kunda emas, 12 kun davomida takrorlash, albatta, yaxshi natija beradi.

Qismlarga ajratib, yodlash. Masalan, o'quvchi-talaba ertaga 30 ta yangi chet tilidagi so'zni yodlashi kerak. Ularni 3 yoki 6 ta qismga ajratish, ya'ni avval 10 yoki 5 ta so'zni yodlash, oxirida hamma so'zlarni yoddan takrorlay oldadigan darajada mustahkamlash kerak. Lekin kichik bo'limlarni birdaniga yodlash mumkin. Yodlash ikki turli bo'linadi: yuzaki, ya'ni mexanik yodlash va anglab, ma'nosini tushunib yodlash. Quyidagi jadvalda ular orasidagi farqlar ko'rsatilgan:

2.4.1-jadval. Mexanik yodlash bilan anglab, yodlash orasidagi farqlar

| Mexanik yodlash | Anglab, yodlash |
|--|---|
| <p>Ko'p takrorlash yo'li bilan ma'nosini chuqur tushunmasdan yodlash.</p> <p>Kutilmaganda esdan chiqishi mumkin.</p> <p>O'quvchi-talabalar ba'zan yodlagan she'rlarining mazmunini tushunmasliklari ma'lum.</p> <p>Mexanik yodlash zarur hollar: telefon raqami, ismlar, manzillar, sanalar, chet tilidagi so'zlar, formulalar, ko'paytirish jadvali va boshqalar.</p> <p>Ilmiy ta'rif, xulosalarni, formulalarni yodlashda bu usul foyda berishi qiyin.</p> | <p>Bunday yodlash shakllari – tushungan holdagi mexanik yodlash, tahlil qilish orqali mantiqiy bog'liqliklarni tushunish asosida yodlash hamda mnemotexnikadan iborat.</p> <p>Mnemotexnika (mneme-grekcha-xotira), ya'ni eslab qolishni engillashtiruvchi yo'l, usullar. Bu eslab qolish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni sun'iy o'xshashliklar topib yodlash: qofiya, o'xshashlik, ritm, ohang yordamida, maqollar, she'rlar; sun'iy so'z birikmalari, tarixiy sanalar, geografik nomlar, grammatika qoidalari, formulalarni.</p> |

Xotirani mashq qildirish. Masalan, darslik yoki o'quv qo'llanmasidan biror bobni o'qib, o'zlashtirishdan maqsad eng asosiy shartlarni, tushuncha, ta'rif, qoida, bog'liqlik va shu kabilarni ajratishdan iborat bo'lishi kerak. Takrorlash maqsad emas, bayon qilingan mohiyat, ma'nomazmunni tushunish maqsad, ya'ni takrorlash orqali tushunishga intilish kerak. O'quvchi-talaba eslab qolishni istashi kerak. Agar shunday maqsad bo'lmasa, natija bo'lmaydi.

Diqqatni jamlashni yaxshilash qanday kechadi?

Buning uchun yoshlardagi jismoniy kamchilik va kasallikni davolash zarur. Qoida: psixikaning har qanday xususiyati muntazam mashqni talab qiladi, faqat shunda etarlicha ishonchli bo'ladi. Bu xotira, nutq ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash va boshqalarga tegishli.

Xotirani jamlashni mashq qildirish uchun maxsus mashqlar:

- kun tartibi nisbatan mo''tadil (stabil) – o'zgarmas bo'lishi;
- kun davomida o'qish va dam olishga aniq vaqt ajratish;
- boshlagan ishni chalg'imasdan oxiriga etkazishga o'rgatish, bunda o'smirni boshqa yoshlar ham, kattalar ham chalg'itmasligini ta'minlash;

- uy vazifalari batartib bajarilganligini nazorat qilish;
- har qanday yutuqni o'z vaqtida rag'batlantirish bilan mustahkamlash;
- murakkabroq darslar ertalab, o'smirlar charchamasidan o'tilishi;
- charchaganlik yaqqol biliganda o'smirga dam berish.

Diqqatsiz o'quvchi-talabani o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish kerak. Buning uchun avval kiyimlari batartib, qo'llari toza, tirnoqlari olingan bo'lishini talab qilish zarur. Ularning darsga kechikmasdan kelishlari, darslik, daftarlarini tartibli saqlashlariga e'tibor berish kerak. Bularning hammasi diqqatli bo'lishga o'rgatadi.

So'ngra maxsus mashqlar bajarish mumkin. Buning uchun tarbiyachi, otana xotirjam, vazmin bo'lishlari kerak. Bu jiddiy shart bo'lib, ular ishdan charchab, noxush kayfiyatda kelganlarida o'smirni yaxshi tarbiyalamoqchi bo'lsa, o'z hissiyotlarini bosishi engil bo'ladi.

Chunki, muvaffaqiyatlar o'quvchi-talabalarning faolliklarini ko'proq rag'batlantirib, diqqatlarini oshirishga yordam beradi [8, 64-79].

2.5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning ijtimoiy-psixologik tomonlari

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilishni innovasiya, ya'ni yangilik jarayoni deb qarash mumkin. "Innovasiya" tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovasiyaga biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'zi tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. "Innovasiya" ikkinchi ma'noda biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va innovasiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Har qanday yangilik kiritilishi shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa

a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq [4, 66].

Odatda, yangilik kiritilishi jarayonida yangilikka nisbatan psixologik to'siq paydo bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyada uning paydo bo'lishi va sabablari chuqur o'rganilgan. Bu tegishli odamlarning yangilikka nisbatan befarq yoki salbiy munosabatida namoyon bo'ladi. Kishilarda bunday psixologik to'siq ochiq yoki yashirin holda uchrashi kuzatiladi. Yangilikning, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyaning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va ko'zda tutilgan samara berishi bir qator omillarga bog'liq. Ularni 3 ta katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillarga kiritilayotgan yangilikning mazmuni sifatiga va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq. Ikkinchi guruh yangilikni kiritishga yondashuv bilan bog'liq omillarini qamrab oladi. Uchinchi guruh ijtimoiy psixologik omillar bo'lib, uning tarkibiga yangilikka kishilarning munosabati, jamoaning innovasion potentsiali, jamoada ijtimoiy psixologik iqlim, rahbarlik uslubi va boshqalar kiradi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, innovasion potentsiali yuqori jamoalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy qilinishining samarasi yuqori ekanligi aniqlandi. Zamonaviy pedagogik texnologiyani samarali joriy etish uchun pedagogik jamoa a'zolarini bu yangilik haqida to'liq zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda ularning bu pedagogik texnologiyaga munosabatini aniqlash, shu asosda bu munosabatni yaxshilashga yo'nalgan tadbirlar olib borish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyani kiritish jarayonida rahbarlar faoliyatining ahamiyati juda ortadi. Texnologiyani kiritishga mas'ul kishilar va ularning guruhini tashkil qilish, ular faoliyatini doimiy qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va nazorat qilish hamda pedagogik texnologiya natijalarini monitoring qilib borish (doimiy baholab borish) bu yangilikning samarali joriy qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda ta'lim-tarbiyani takomillashtirishni nafaqat o'zimizning ilg'or tajribalarimiz, balki xorijdagi ta'lim sohasida qo'llanilayotgan o'qitishning yangi samarali uslublarini chuqur o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirgan holda yangilik kiritish (ya'ni, innovasiya)ning nazariy va amaliy qoidalariga rioya qilgan

holda kiritish, qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy psixologik bahs, munozara, breynshtorming va trening shunday pedagogik innovasiyalardandir. Albatta, bu innovasion usullarning mohiyatini va uni darsda qo'llash va ijtimoiy psixologik jihatdan bilish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

O'qituvchi dars boshlanishidan avval o'quvchi-talabalar – munozara ishtirokchilarini ma'naviy-ruhiy (psixologik) jihatdan tayyorlash maqsadida quyidagi eslatmani qaytarishi zarur.

2.6. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari

Hozirgi vaqtda qator xorijiy mamlakatlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, “Muammoli ta'lim” “Hamkorlik ta'limi”, “Loyiha ta'limi”, “Tabaqalashtirilgan ta'lim”, “O'quvchi papkasi”, “O'qitishga individual va differensial yondashish” kabi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Albatta, ularni pedagogik amaliyotda qo'llashda ixtiyoriylik tamoyilidan kelib chiqiladi. Chunki ma'muriy majburiylik yaxshi natija bermaydi. Pedagoglar ularni o'z imkoniyati va ta'lim muassasasidagi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda tanlaydi. Ma'muriyat esa pedagoglarga tashkiliy-pedagogik yo'nalishda, ya'ni moddiy-texnik baza yaratish, o'quv xonalarini jihozlash, ta'lim jarayonini tashkil etish borasida yordam ko'rsatishi zarur. Taklif qilinayotgan texnologiyalarni an'anaviy ta'lim usullari bilan birgalikda qo'llash mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'zining falsafiy-tarixiy, psixologik, pedagogik mohiyatiga ko'ra insonparvar xususiyatga ega. Ular ta'limning tarbiyaviy xususiyatini kuchaytiradi, o'quvchi-talabalarning aqliy va manaviy-axloqiy qobiliyatini rivojlantiradi. Ularda bir-birlariga yordam berish, hamkor bo'lish va o'zaro muloqotga kirisha olish fazilatlarini shakllantiradi. Ya'ni zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosiy mohiyati ta'lim oluvchi shaxsini kamol toptirishga yo'naltirilgan.

Shaxsni kamol toptirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish texnologiyalarini pedagogik faoliyatga qo'llashda ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribasi, saviyasi,

ixtisosligi va fanga bo'lgan qiziqishi, psixologik xususiyatlari (xotira, idrok, tafakkur, o'z hissiyotini boshqara olish), xulq-atvori va mijoziga alohida e'tibor berishi zarur. Zero, ta'lim natijasi nafaqat o'qitish usuli va mazmuniga, balki yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillarga ham bog'liqdir.

Hamkorlikda o'qitishning asosini kichik guruhlarda ta'lim berish tashkil qiladi. Uning g'oyasi XX asrning 20-yillarida Amerikaning mashhur faylasufi va pedagogi (pragmatizm falsafasining asoschisi) Jon Dyun tomonidan ishlab chiqilgan. Hamkorlikda o'qitishning amaliy yo'nalishi, ya'ni o'quvchi-talabalarni kelajak hayotga yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashning turli shakllari keyinroq shakllangan.

Amerikada hamkorlikda o'qitish texnologiyasi o'quvchi-talabalarda ma'lum ko'nikma va malakalarni, bilim va tushunchalarni shakllantirishga qaratilsa, YEropa mamlakatlari va Isroilda darsni loyihalash, munozara tashkil qilishga asoslanadi. Hamkorlikda o'qitish faqat ta'limiy jihatdan ahamiyatli bo'lmay, balki o'quvchi-talabalarning axloqiy kamolotiga ham kuchli ta'sir qiladi. Hamkorlikda o'qitishning muhim tomoni jamoa bo'lib faoliyat ko'rsatishdir. Misol uchun, Amerikadagi Jon Xopkins universitetida komanda (guruh) tarzida o'qitish keng qo'llaniladi.

Guruhning har bir a'zosi o'rganiladigan mavzu (muammo) bo'yicha boshqalar bilan hamkorlikda ish olib boradi, muammoni hal etadi, zaruriy bilim va malakani egallaydi. Bunda har bir o'quvchi-talabaning nimaga erishganini bilishi o'ta muhim hisoblanadi.

Butun guruh o'quv materiali mazmunini uning har bir a'zosi o'zlashtirishidan manfaatdor. Chunki natija uning har bir a'zosining qo'shgan ulushi va guruhning o'z oldiga qo'ygan masalani hamkorlikda echishiga bog'liq.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi uchta tamoyilga asoslanadi:

guruh ishi natijasi ball, sertifikat, maqtov, maxsus mukofot yoki taqdirlash orqali baholanadi;

har bir o'quvchi-talaba o'z ishi uchun mas'ul. U butun guruhning yutuq yoki kamchiligini belgilaydi. Bu esa guruh a'zolarining faoliyatini nazorat qilish, o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun bir-birlariga yordam berishni taqozo etadi.

guruhning to'plagan bali har bir a'zosining olgan ballari soniga bog'liq. O'zlashtirish natijalarini avvalgilari bilan taqqoslash aynan shu guruh o'quvchi-talabalari erishgan natijalarni baholash imkoniyatini beradi.

Guruh tarkibida hamkorlikda ishlashning to'rt usuli mavjud. Bulardan ikkitasi umumta'lim maktablari yoki akademik lisey, kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin: hamkorlikda kichik guruh-komandada o'qitish; o'yin, turnir shaklda guruhni o'qitish; qolgan ikkitasi ta'limni tabaqalashtirish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda ma'lum yoshdagi o'quvchi-talabalar guruhida, masalan, aniq fanlarni o'qitishda qo'l keladi; ijodiy insho yozishda hamkorlikda o'qitish ijobiy natijalar beradi.

Masalan, kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitishni tashkil qilishda guruh 4 kishi (bilimi har xil darajadagi o'quvchi-talabalar)dan iborat bo'ladi. Bunda o'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi. Keyin o'quvchi-talabalarni guruhlariga bo'lib, ularga mavzuni mustahkamlash bo'yicha turli topshiriqlar beradi. Bunda topshiriq ayrim qismlarga bo'linib, har bir o'quvchi-talaba o'ziga tegishli qismini o'rganishi yoki ularni birin-ketin almashib bajarishi mumkin.

Topshiriqni bajarishni guruhdagi bilimdon yoki sustroq o'zlashtiruvchi o'quvchi-talaba boshlaydi. Ammo har bir topshiriq oshkora bajarilishi, ovoz chiqarib tushuntirilishi va ish jarayoni butun guruh tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining yana bir ko'rinishi komanda-o'yin faoliyatidir. Bunda o'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi va o'quvchi-talabalar faoliyatini o'quv materialini guruh bo'lib o'zlashtirishga yo'naltiradi.

Ammo o'zlashtirish natijalarini baholash uchun komandalar o'rtasida haftalik musobaqalar tashkil etiladi. Buning uchun uch o'quvchi-talabadan iborat "Mustaqil musobaqa stollari" tashkil qilinib, unda yoshi, bilimi teng bo'lgan o'quvchi-

talabalar ishtirok etadi. Bunday o'qitish matematika va tabiiy fanlarni o'rganishda yaxshi natija beradi.

Topshiriqlar tabaqalashtirilib, murakkablik darajasiga qarab beriladi. Har bir “stol” g'olibi o'z komandasiga bir xil miqdorda ballar keltiradi. Bunda sust o'zlashtiruvchilar ham tengdoshlari bilan musobaqalashib, o'z komandasiga ochko keltiradi. Musobaqada eng ko'p ball to'plagan komanda g'olib hisoblanadi va mehnatiga muvofiq holda taqdirlanadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining yana bir turi – bu guruhda individual ishlash. Bunda o'quvchi-talabalar avval o'zlashtirgan bilimlari natijasiga ko'ra individual topshiriq olib, o'z ish mavzusi asosida uni bajaradi. Ta'limning bunday shaklida komandalar turli xil faoliyat (topshiriq) bilan shug'ullanishi mumkin. Komanda a'zolari bir-birlariga individual topshiriqlarni bajarishda yordam berib, yo'l qo'ygan kamchiliklari, erishgan yutuqlari yoki o'zlashtirish darajalarini maxsus daftarga qayd qilib boradilar. Yakuniy baholash testlarini o'quvchi-talabalarning o'zlari (maxsus baholovchi o'quvchi-talaba) individual amalga oshiradi. O'qituvchi har hafta komanda a'zolari bajargan topshiriqlarni reja asosida o'rganib boradi. Bunda o'qituvchi guruhlarining erishgan yutuqlarini alohida ta'kidlashi lozim.

O'quvchi-talabalar mustaqil ishlagani uchun o'qituvchining alohida guruh yoki o'quvchi bilan individual ish olib borish imkoniyati kengayadi.

O'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini bunday tashkil qilish ko'proq matematika fanini o'qitishda ko'l keladi.

Hamkorlikda o'qitishning yuqorida qarab o'tilgan shakllarida ma'lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik maqsad va vazifalarining yaqinligi, o'quvchi-talabalarning ta'lim olishdagi teng imkoniyati va individual mas'uliyatida ko'rinadi. Shu bilan birga guruhda raqobat emas, balki hamkorlik, guruh a'zolarining umumiy maqsadi va muvaffaqiyatdan manfaatdorligi, o'zaro yordami g'alabani belgilovchi omil ekanini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Guruhlardagi imkoniyatlar sust o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalarni ham yaxshi bilim olishga chorlaydi.

Eng muhimi, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'rni uning o'quvchi-talabalarning mustaqil bilim olishiga yordam berishi bilan belgilanadi. U o'quvchi-

talabalarga tayyor bilimlar bermaydi, balki ularni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, o'z shaxsi va bilimiga tanqidiy baho berish, axborotlarni tahlil qilish, ulardan keraklisini ajrata olish, xulosa chiqarish, o'z fikrlarini asoslay bilishga o'rgatadi. Zero hamkorlikda o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchi-talabalarni psixologik xususiyatlarini va xulq-atvorini rivojlantirishga, mustaqil ta'lim olishga yo'llashdir.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan kasb ta'limi texnologiyasi asosida tashkil etish pedagogdan katta mahorat talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari o'qituvchidan nafaqat o'quvchi-talabalarga bilim berish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni, balki ularning shaxsini rivojlantirishni talab etadi. Bunga esa ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining bir-biriga o'zaro ishonchi, hamkorligi va jonli muloqoti orqali erishiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o'quvchi-talabalarga faqat ensiklopedik bilim berish bilan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki bugungi kunda iqtisodchi kasbiy faoliyat mazmuni prinsipial jihatdan o'zgardi. Har qanday kasb egasi texnologiyalarni mustaqil boshqarish, hayotiy muammolarni echish va maqsadga erishish uchun qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Buni davr talab etmoqda.

Ta'lim oluvchining shaxsi shakllanishi pedagogning ish faoliyatiga, uning jamoa bilan hamkorlik qila olish uquviga ham bog'liq. Oliy va o'rta maxsus iqtisodiy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish omillaridan biri o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashdir.

Pedagog ta'lim oluvchi shaxsni hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan voz kechib, uni rag'batlantirishi, bajargan ishlarining foydali ekanini ta'kidlashi zarur. Maqsad o'quvchi-talabada avvaldan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish emas, balki uning o'z-o'zini anglashi, o'zligini namoyon etishi uchun imkon berishdir.

An'anaviy ta'lim majburlikka, o'qitishni qattiqqo'llik asosida tashkil etishga asoslangan bo'lib, bunda ta'lim oluvchilar deyarli mustaqil faoliyat yuritishmaydi va ularning tashabbuslari bo'g'iladi. An'anaviy o'qitishda o'quvchi-talabaning o'quv

faoliyati ijodiy xarakterga ega bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, u avtoritar pedagogikaga asoslanadi. Unda o'quv jarayoni o'quvchi-talabalarning bilimlarini o'zlashtirishi va qayta tiklanishidan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasida shaxs ta'lim jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Bunda o'quvchi-talabaning intellektual-psixologik rivojlanish darajasi, qobiliyati va sifatlari inobatga olinadi; o'quv faoliyatida ta'lim oluvchi bilimlarni mustaqil egallab, amalda qo'llashga o'rgatiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi ta'lim berishning an'anaviy usul va vositalari, uni tashkil etish shakli va natijalari (ta'lim oluvchilarning bilimi, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi)ga ko'ra sezilarli darajada farq qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda pedagog va o'quvchi-talabalar hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Ana shu hamkorlik natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini faollashtirish va namoyon etish xususiyatlari paydo bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan oliy va o'rta maxsus iqtisodiy ta'lim tizimida kasbiy ta'limning nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

- ta'lim oluvchining o'qitish jarayonidagi o'rnini belgilash va shaxsini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchining kasbiy shakllanishi bo'yicha me'yoriy talablar qo'yish (ushbu me'yorlar Davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topgan);
- ta'limni tashkil etishda pedagogning ijodiy qobiliyati va mahoratiga tayanish;
- ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini texnologiyalashtirish asosan, o'quv-didaktik materiallarni ishlab chiqish va o'quvchi-talaba shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Texnologiyalashtirish o'quvchi-talabaga o'quv materialini mazmunini mustaqil tanlash va o'z-o'zini baholashiga imkoniyat yaratadi.

Shuni ta'kidlash joizki, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni samarali tashkil etish o'quv maqsadlariga

erishishni kafolatlaydi. Agar o'qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, zamonaviy o'qitish texnologiyalari ham samara bermaydi.

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish texnologiyalari orqali o'quvchi-talabada mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish va qarorlar qabul qilish xususiyatlari shakllanadi va rivojlanadi.

2.7. Muammoli ta'lim texnologiyasi

Ma'lumki, oltmishinchi yillarda ma'lumot berish (informativ) xarakteridagi o'qitishga e'tirozlar ancha kuchaygan edi. Chunki bunday o'qitishda o'quvchi-talabalardan faollik talab qilinmasdi. O'sha yillar o'qitishda faollik psixologiyasi va u asosida o'quv faoliyati nazariyasi rivojlanadi. Natijada ta'limda o'qitishning yangi-yangi usullari qo'llanila boshlandi. Ulardan biri o'quvchi-talabalarni faol fikrlashga o'rgatishdir. Bu qiyin ish emas, albatta. Buning uchun dars vaqtida o'quvchi-talabalarga har xil savollar beriladi. Lekin savol bilan savolning farqi bor. Chunki masalalar jiddiyligi, xarakteri va yo'nalishi bo'yicha turlichadir. Ularni bir-biridan farqlash kerak bo'ladi. Bu masala qo'yib o'qitish deb ataldi. Lekin “masala” so'zi yunon tilidan “muammo” deb tarjima qilingan. Holbuki, “muammo” so'zining ma'nosi “masala” so'zi ma'nosidan ancha teranroqdir.

Muammoli o'qitish texnologik yo'l bilan rivojlandi. Natijada muammoli o'qitishning to'rt bosqichdan iborat mantiqiy shakli paydo bo'ldi:

- 1) muammoning qo'yilishi;
- 2) uni echish yo'llarini aniqlash;
- 3) muammoni echishning eng maqbul yo'lini tanlash;
- 4) muammoni echish.

Lekin o'quvchi-talaba javobini bilmagan savollarning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltirmaydi. Masalan, “Toshkentda qancha odam yashaydi?”, “Doira yuzini hisoblang” kabi masalalarni echishni qo'yish – bu hali muammoli vaziyat bo'la olmaydi.

O'qitish jarayonida qarama-qarshilik paydo bo'lgan vaziyatni S.L. Rubinshteyn muammoli vaziyat deb atadi. O'qituvchi o'qish (bilish) jarayonida qarama-qarshiliklarga duch kelsa, uning bilishga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi, ya'ni motivasiya paydo bo'ladi. Masalan, jismlarning suzishini o'rganishda “Nima uchun suvga tashlangan temir mix botib ketadi, temir kema esa suvda suzib yuradi?” degan savol muammoli hisoblanadi (chunki bu savolda qarama-qarshiliklar bor). Bu savol o'quvchi-talabani qiyoslashga va talqin etishga, tahlil qilishga undaydi va hatto majburlaydi, ya'ni jismlarning suyuqlikda suzish qonuniyatini tushunishga olib keladi. Metodologiya jihatdan qaraganda tushunchalar orasidagi qarama-qarshilik emas, balki qarama-qarshiliklarning asl manbai birlamchi hisoblanadi.

Muammoli o'qitish oliy o'quv yurtlarida 1980-yillardan joriy qilina boshlandi. Markaz ko'rsatmasida “Ma'ruzalar muammoli xarakterda bo'lishiga erishilsin” deb yozilgan bo'lsada, lekin ularning qanday bo'lishi kerakligi ko'rsatib berilmagan edi.

Muammoli o'qitish ilmiy asoslanmasdan qo'pol tarzda amalga oshirildi. Tushunchalarni chalkashtirish, atamalar manipulyasiyasi keng tarqaldi. Ba'zi ta'lim beruvchilar savol berib o'qitishni muammo qo'yish deb tushunishdi. Boshqa bировlar esa “masala” atamasini “muammo” deb o'zgartirib, o'zlarini muammoli o'qitishning tashabbuskorlari, deb hisoblashdi. Ko'pchilik o'qituvchilar esa, yuqorida keltirilgan talqinlarning sun'iy ekanini ko'rib, muammoli o'qitishni rad etdilar. Bu esa muammoli o'qitishning chippakka chiqishiga va uning sekin-asta unutilishiga olib keldi.

“Muammoli o'qitish” atamasi asosida masala tushunchasi bo'lishi mumkin emas. Aks holda, uni metodologik jihatdan asoslash kerak bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun ularni doimo savol berishga undash lozim. Yo'q joydan savolning qanday paydo bo'lishini ko'rsatish, dars oxirida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilib berilishi zarur. Atoqli polyak olimi V.Okon shunday yozadi: “O'qituvchilar tadqiqotchi o'tgan yo'lni tanlashni qanchalik istasa, natija shunchalik yaxshi bo'ladi”.

Muammoli o'qitishning kamchiligi shundaki, birinchidan, u qo'shimcha vaqtni talab qiladi, ma'lumotlar etkazib berish bo'yicha informativ o'qitishdan orqada qoladi. Ikkinchidan, muammoli o'qitish o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi. Darsda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun o'qituvchida, birinchi navbatda, olimlik xususiyati bo'lishi talab etiladi. Biroq ana shu holatlarning o'zi muammoli o'qitishni keng va samarali qo'llashga imkon bermaydi.

Muammoli o'qitish-ta'lim sifatining yangi bosqichi. Hozirgi davrda o'quvchi-talabalarga ma'lumot va tavsiyalarning ma'lum to'plamini berish unchalik ahamiyatli emas, ularning ma'lumotlarni mustaqil olishi va o'z bilimiga aylantirishi uchun aniq yondashuvlarga ega bo'lishi muhimdir. Albatta, ayrim ma'lumotlarni ma'ruza vaqtida etkazish imkoni bo'lmay qoladi, lekin tejalgan vaqtlar hisobiga xulosalar chiqariladi, umumlashtiriladi, dunyoqarash shakllantiriladi, ya'ni o'qitishning muammoli xarakteri ochib boriladi. Bunda o'quvchi-talabalarning mustaqil va tanqidiy fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilishi ahamiyatlidir. O'qitishning oxirgi maqsadi bilimlarni quruq yodlab olish emas, balki kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. O'qitish – bu bilim berish emas, balki oldingi avlodning ijtimoiy tarixiy tajribasini o'rgatishdir.

O'quvchi-talabalar bilan o'qituvchi keng muloqotga kirishishi lozim. Ularga darslikdagi tayyor bilimlarni berish bilan birga hayot va bilimlardan qanday foydalanish haqida so'zlashimiz zarur. Muammoli o'qitish orqali o'quvchi-talabani o'z fikrini aytishga, uni himoya qilish va bahslashishga o'rgatish mumkin. O'qitish jarayonida qarama-qarshilik bo'lmasa bahs ham, munozara ham bo'lmaydi. Munozarasiz esa muammoning echimi topilmaydi. Dars jarayonida bir-biriga hurmat, ishonch va ishchanlik ruhi hukmron bo'lishi kerak. O'quvchi-talaba o'qituvchining o'rgatishga samimiy intilayotganini bilishi, uni o'ziga teng ko'rayotganini yaqqol his qilishi zarur. Bu esa, shubhasiz, o'qitishda shaxs omilini hisobga olish, birga ishlash pedagogikasini qo'llash va ta'limni insoniylashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, muammoli ta'limning maqsadi “ilmiy bilish, bilimlar tizimi natijalarini o'zlashtirishgina emas, balki natijalarga erishish yo'lini ham o'zlashtirishdir” [13, 192] U o'quvchi-talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishdagi aqliy izlanish, ijodiy faolliklariga xizmat qiladi.

Muammoli ta'limdan foydalanib o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda quyidagilar rejalashtiriladi:

1) o'rganiladigan mavzuning maqsad va vazifalari, uni muammoli ta'lim vositasida o'rganish imkoniyatlari;

2) mavzuni o'rganishda o'quvchi-talabalarga beriladigan muammoli savollar yoki topshiriqlar mazmuni;

3) o'quvchi-talabalarning muammoli topshiriqlarni echishga xizmat qiluvchi, avvalgi o'rgangan bilim zaxiralari;

4) muammoli topshiriqlarni hal etishga yordam beruvchi o'quvchi-talabalarning ko'nikma va malakalari;

5) topshiriqlarni echishga qanday ko'rgazmali qurollar, vositalar kerak bo'lishi;

6) muammoli topshiriqlarni echish natijasida bilim va malakalarning taxminiy hajmi;

7) qilingan ishlar va ularning natijalaridan qanday xulosalar chiqarish lozimligi haqidagi ishlar.

Har qanday savol o'quvchi-talabalarning ayni savolni hal etishga bo'lgan qiziqishlari, ichki intilishlarini hosil qilavermaydi. Shu bois savollar qiziqarli, o'zida qandaydir qarama-qarshiliklarni ifodalovchi, o'quvchi-talabani hayratga soluvchi, fikrlashini faollashtiradigan tarzda tuzilishi lozim.

Haqiqatdan ham, muammoli o'qitish texnologiyasi ta'limning eng samarali usullaridan bo'lib, unga ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar kiritilib, o'quv materialini an'anaviy shaklda bayon etiladi.

Respublikamizda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha to'plangan tajribalar asosida muammoli o'qitishning mohiyati va mazmuni haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin.

Muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi, avvalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarning to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga tayanib, muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar va taklif kiritishadi. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlaydilar, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni echishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Muammoli vaziyat – muayyan qiyinchilik tufayli vujudga kelgan holat bo'lib, uni bartaraf etish yo'li topilishi shart. Vazifa engil hal etiladigan yoki aksincha, hal etilishi mumkin bo'lmagan paytda muammoli vaziyat vujudga kelmaydi.

Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, o'quvchi-talabalar o'zlari muammoni mustaqil echishga kirishishlari kerak. Shu sababli ham o'quvchi-talaba uchun materiallar va topshiriqlar tizimi shunday tuzilishi kerakki, ular asosan, mustaqil fikr yuritishga va o'rganishga qaratilishi lozim.

Muammoli ma'ruzani o'qituvchi shunday tuzishi kerakki, o'quvchi-talaba ongida o'quv materialida berilgan unga notanish bilim haqida quyidagi savollar tug'ilsin: “Uni bilib olish uchun nima qilish kerak?” Ushbu muammo echimi, tamoyili qanday?” Aynan shu tufayli o'quv materialini o'quv muammosi shaklida beriladi. Bu savollar zahirida ma'lum ziddiyatlarni qayd etuvchi va bu ziddiyatni aniqlovchi ta'limiy masala mantiqiy shaklda bo'ladi. Ziddiyatni hal etuvchi savolga javob noma'lum bo'lib, uni aniqlashda o'quvchi-talaba intellektual qiyinchilikni his etishi shart.

O'qituvchi o'quvchi-talabalarni muammoning faol echimi jarayoniga jalb etgandagina o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati rag'batlantiriladi. O'qituvchi yordamchi savollarni qo'yadi, o'quvchi-talabalarning ular muhokamasida faol ishtirokini ta'minlaydi. Munozara boshlanishi rag'batlantiriladi, hammani birgalikda fikrlash ishiga jalb etadi va fanda aks ettirilgan ma'lum echim yo'llarini ko'rsatib, muammo echimiga olib keladi.

O'quvchi-talabalarning muammo echimi jarayoniga qatnashuvi darajasiga ko'ra ta'limning turli darajada muammoli tashkil etilishi farqlanadi. Birinchi daraja

o'qituvchining shunday faoliyatini ko'zda tutadiki, bunda o'quv materialini bayon etishda uning o'zi muammoni to'liq yoritadi hamda uning echimi yo'lini ochib beradi va o'quvchi-talabalarni qarshi savollar yordamida birga fikrlashga jalb etadi. Muammoli ta'limning ikkinchi darajasi o'qituvchi tomonidan muammoning qo'yilishi va ifodalab berilishiga yo'l ochadi, keyin o'quvchi-talabalarni uning echimini mustaqil izlashga yo'naltiradi. Uchinchi daraja muammoni ifodalamay, o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatning yaratilishi va o'quvchi-talabalarning keyingi mustaqil faoliyatni ko'zda tutadi. Muammoli o'qitishni tashkil etishning to'rtinchi darajasida o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi, xolos, muammoga “yaqinlashtiradi”, lekin uni ko'rsatmaydi va o'quvchi-talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltiradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'limning an'anaviy tuzilishi doirasida muammoli ta'limning barcha shakllarini amalga oshirish uchun auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'limning muayyan shakllariga moslashtirish zarurati kelib chiqadi. Masalan, uchinchi darajali muammoli ta'limni amalga oshirish talabalardan katta nazariy tayyorgarlikni talab etadi. Muammoning to'rtinchi darajasi o'quvchi-talabalar tomonidan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonida biron-bir loyihani tayyorlash doirasida amalga oshiriladi.

Xullas, muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi faolliklarini oshirishga, ularning mashg'ulotlarni diqqat bilan tinglab, o'quv materialini tahlil qilish, taqqoslash, hulosalar chiqarish kabi aqliy faoliyatlarining rivojlantirishga yordam beradi.

2.8. Kasbiy yo'naltirilgan muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash bosqichlari va metodlari

Muammoli o'qitish samaradorligi o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga bog'liq. Muammoli o'qitish o'quvchi-talabalarning ilmiy-izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi, ularning bilim olish faolligini oshiradi.

Muammoli o'qitishning o'qituvchi shunday tashkil etadiki, bunda o'quvchi-talabalar notanish bilimni o'zlashtirishi uchun nima qilish kerakligi haqida mulohaza yuritadi va o'ziga bir necha savollar bilan murojaat etadi. Masalan, dastlab u “Muammoni hal etish va u bilan bog'liq bilimni o'zlashtirish uchun nima qilishi kerak?”, “Masala echimining tamoyili qanday?” kabi savollarga javob topishga urinadi.

Muammoli o'qitish bu ta'lim berishning shunday metodiki, bunda real ijodiy jarayon modellashtiriladi. Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat yaratilib, o'quvchi-talabalarning muammoni echish borasidagi izlanishlari boshqariladi. O'quvchi-talabalar yangi bilimlarni o'qituvchilar yordamida o'zlashtiradilar. Buning uchun ikki omil muhim hisoblanadi:

1. Ma'lum o'quv materialini bilishga ehtiyojning yuzaga kelishi:
2. Ma'lum masalalarni bajarish uchun zarur bo'lgan umumlashgan yangi bilimlarni egallash.

Albatta, muammoli o'qitish metodidan foydalangan holda darsni tashkil etish o'quv materialini o'rganish ketma-ketligi va tahlil etishga o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. O'qituvchi savollarni o'quv muammosi sifatida qo'yadi. Savollar zamirida ma'lum muammoni aks ettiruvchi ta'limiy masala yotadi. O'qituvchi muammoli savollar quyib, o'quvchi – talabalarning muhokamada faol ishtirok etishini ta'minlaydi. O'quvchi-talabalarning muammoni echish jarayonida qatnashish imkoniga qarab, muammoli o'qitishni turli darajada tashkil etishi mumkin.

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uning echimini topib beradi; qarshi savollar yordamida o'quvchi-talabalarni fikrlashga majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o'quvchi-talabalarni muammo echimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchi-talabalar mustaqil fikrlab, muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topadilar.

To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi, xolos, muammoga “yaqinlashib boradi”, lekin uning mazmuni va echimini ko'rsatmaydi. O'quvchi-talabalarni mustaqil faoliyatiga yo'naltiradi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchi-talabalar ma'lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o'zlashtiradi va o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli o'qitishning asosiy mohiyati va afzalligi shundaki, o'qituvchi ta'lim usullari (muammoli savollar qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, o'quvchi-talabalarga “yordam so'rab” murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlashga va munozaraga chorlaydi.

Muammoli o'qitish o'quvchi-talabalarning nafaqat auditoriya-sinfdagi, balki sinf-auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishini faollashtiradi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;
- vaziyatni kuzatish va tavsiflash;
- vaziyatni tahlil qilish uchun ma'lumotlar to'plash, muammoni echish usullarini aniqlash va uni amalda qo'llash;
- mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida muammo echimini topish;
- muammo echimini tavsiflash va unga har tomonlama baho berish.

Bu bosqichlar ketma-ketligini sxematik tarzda tasvirlash ham mumkin.


Muammoli vaziyat yaratish va uning echimini topishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Mavzuni muammoli bayon etish. Ta'lim jarayonida o'qituvchi muammoli vaziyatni yaratib, uning oxirgi echimini topib beradi.

Namunaviy muammoli vaziyat echimini mustaqil topish. Bunda yuqorida ta'kidlagan shart-sharoit saqlanib qolinadi, ammo o'qituvchi o'quvchi-talabalardan avval berilgan muammoli vaziyat echimiga qarab, namunaviy muammoli vaziyat echimini topishni talab etadi. Bunday mashg'ulotlar orqali talabalarga muammoli vaziyatlarni echishning maqbul usullari o'rgatiladi. Ko'p variantli muammoni taklif etish va uni echishda etishmayotgan bilimlarni aniqlab, muammo echimini izlash va topish. Bunday o'quvchi-talabalar mustaqil faoliyatga yo'naltiriladi. Ular olgan bilimlarni umumlashtirib, o'z tajribasidan foydalangan holda muammoning o'ziga xos echimini topish yo'llarini izlaydi.

Kombinasiyalashgan muammoli o'qitish – muammoli natijaga imkon beradigan bir nechta kichik muammolarga bo'lish. Bunda savol-javob orqali muammoning maqbul echimi topiladi.

Kombinasiyalashgan muammoli mashg'ulotda o'quv materiali o'qituvchi bilan hamkorlikda o'rganiladi. Ma'ruza muammoli bayon etiladi. Keyingi muammolarni echishda o'quvchi-talabalar mustaqil faoliyat ko'rsatadi.



2.9.1-rasm. Muammoli o'qitish bosqichlari

Tadqiqot xarakteridagi muammoli o'qitish. Bunda ta'lim berish ixtisoslikka yo'naltirilib, o'quvchi-talabalarga ishlab chiqarish muammolarini o'z ichiga olgan vazifalar tartib bilan beriladi. O'quvchi-talabalar esa muammoni o'rganib, maxsus fanlardan egallagan bilimlari va kasbiy-ijodiy mahoratiga tayangan holda muammo echimini mustaqil topishadi.

O'quvchi-talabalarni mustaqil ishga tayyorlashning muhim shartlardan biri kun tartibini optimallashtirishdir. Kuzatish natijalari ko'rsatadiki, o'quvchi-talabalarni mustaqil ishga yo'naltirishda ancha-muncha qiyinchiliklarga duch kelinadi. Chunki o'quvchi-talabalarning asosiy vaqti mashg'ulotlarga qatnashish va ularga tayyorlanish uchun sarflanadi. Muammoli topshiriqlarni bajarish esa ular uchun ikkinchi darajali masala hisoblanadi. Holbuki, muammoli mustaqil ish o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatini, amaliy-kasbiy malakasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy o'qitishda talabalar-o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor bilimlarni o'zlashtirar edilar. Muammoli o'qitish jarayonida esa ular amaliy faoliyat orqali ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Muammoli o'qitishda o'quvchi-talabalar nafaqat topshiriqlarni mustaqil bajarish mahoratini egallaydi, balki yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradi, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologik jarayonlarni ijodiy o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'quvchi-talabalarning mustaqil ishi – muammoli vaziyat echimini topish o'qitish usullariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

2.9. Ta'lim texnologiyasi tamoyillari

Ta'lim texnologiyasi tamoyili quyidagilarni qamrab oladi:

– o'quvchi-talabalarning faol ta'lim olishining chinakam mohiyati aqliy faoliyat natijasida bilimning yangi-yangi sir-sinoatlarini mustaqil ravishda anglab olishdir;

– o'quvchi-talabalar darsga faol qatnashishlari lozim.

Etarli darajadagi rag'bat va o'quvchi-talabalar faoliyatini samarali tashkil etish bilan ham ko'zlangan natijalarga erishilmaydi. Pedagogik jarayonning samarasi ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish yo'llarini to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi.

Pedagogik jarayonni boshqarish o'zida quyidagi ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

– faoliyatni boshqarish;

– o'quvchi-talabalar jamoasini boshqarish [20, 90-93].

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyillari quyidagilar:

– inkorporasiya (tizimli faoliyat ko'rsatish) – turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirish;

– moslashuvchanlik – ta'lim shakli, metodi va usullarining turli ta'lim muassasalarida qo'llanuvchanligi;

– uyg'unlik – muayyan o'quv predmetiga oid o'quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakl, metodi va usullari bilan uyg'unligi;

– yaratuvchanlik – turli ta'lim muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari;

– tabiiylikka asoslanish – genetik va ijtimoiy jihatlariga muvofiq o'quvchilarning o'ziga xos, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

O'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, shakl, uslub, vositalar o'quvchi talabalar uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi.

Ta'lim-tarbiya asosida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi.

Agar o'quvchi-talabalar o'quv faoliyati mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etiladigan barcha hatti-harakatlar majburiyat va tazyiq ostida sodir bo'ladi, uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Bu darslik mazmuni-dan ba'zi ilmiy ma'lumotlarni shunchaki, ko'r-ko'rona yodlab olish bo'lmay, balki o'quvchi-talabaning shaxsiy, sub'ektiv tajribasiga asoslangan haqiqiy bilimlar bo'ladi.

Inson ongi hamisha sub'ektiv mohiyatga egadir. O'quvchi-talaba muayyan bilimlarga nisbatan befarq bo'lmay, bilimlar uning uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lsagina puxta o'zlashtiriladi. O'qituvchi bunga o'quvchi-talabada o'quv predmetiga nisbatan qadriyatli, ijobiy sub'ektiv munosabatni tarkib toptirish natijasida erishadi.

O'quvchi-talabaning ruhiy xususiyatlarini o'rganish o'zlashtirilayotgan bilimlarning o'quvchiga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarurligi, aks holda ular rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos jihatlarga ega bo'ladi. Teskari jarayonda individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllari (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik)ni talab etadi.

Shunday qilib, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi shaxs rivojlanishining asosiy substansiyasi hisoblanadi. Shaxs faoliyati uning ichki hissiyotlari bilan bog'liq. Shaxs motiv, hissiyot va shaxsiy fikr vositasida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi o'z darsida o'quvchi-talabalar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faol va rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi-talaba uchun dastlab xolis bo'lgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etsin [20, 90-100].

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida va kasb-hunar kollejlarda yosh o'g'il va qizlar ta'lim olishadi. Ularning ba'zilari dastlab o'qishga unchalik qiziqmaydi, chunki ularda mustaqil ishlash, darsliklardan foydalanish, asosiy va muhim tushunchalarni ajrata bilish borasida malakalar hali shakllanmagan. Hatto o'quvchi-talabalar orasida juda tortinchoqlari ham uchraydi. Ularga mavzu bo'yicha savol bersangiz jim turaveradi. Boshqalar huzurida ham savollarga javob berishga ancha qiynaladi. Bunday o'quvchi-talabalar bilan ishlash ko'p vaqt, muhimi, sabr-toqat talab etadi.

Bino mustahkam asos ustiga qurilgani kabi o'quvchi-talabani o'quv faoliyati ham bilim, ko'nikma va malakaga asoslanishi lozim. O'quvchi-talabalarda mustaqil bilim olishga ehtiyoj uyg'otish, ularni axborotlarning katta oqimidan keraklisini to'g'ri tanlay bilishga o'rgatish juda muhim. Bularning barchasi ta'lim olishga, o'quvchi-talabalarda bilimlarni ayni bir vaqt oralig'ida samarali o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish masalasiga noan'anaviy yondashishni talab etadi. Asosiy didaktik va psixologik nazariyalarga tayanish, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish, eksperiment natijalari rivojlantiruvchi ta'lim pedagogikasi to'g'risida so'z yuritishga imkon beradi. "Rivojlantiruvchi ta'lim deb, – ta'kidlaydi akademik M.I.Maxmutov, – umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limga aytish mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishini bilishga tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z talabalarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib boradi"[13, 82].

Rivojlantiruvchi ta'limda ziddiyatlarni hal etish yo'li bilan o'quvchi-talabani turli o'quv faoliyatida miqdoriy va sifat o'zgarishlar amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi ta'lim modelini loyihalash pedagogik bashoratda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchilar darsning nafaqat "umumiy ssenariysi"ni, balki uning alohida elementlari modellarini ham ishlab chiqadi.

Modelning vazifasi juda xilma-xil. Ulardan asosiysi evristik vazifadir. Tadqiqot ishida va o'quvchi-talabalarning fikriy faoliyatini rivojlantirishda model etalonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ulardan foydalanib, o'qituvchi turli pedagogik vaziyatlarni oldindan bashorat qilishi mumkin.

Bilim olish fikriy faoliyat darajasi va bosqichlari bilan bog'liq. O'qitish metodlari modeli va boshqalar o'qituvchiga darsning maqsad va vazifasini rejalashtirishda, o'qitish metodlarini tanlashda yordam beradi. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishi jarayonida o'quv materiali o'quvchi-talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar berishi va undan qanday foydalanish haqida o'ylab ko'radi.

Masalan, ziddiyatli fikrlarni bir-biriga taqqoslab, o'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi. Bu o'quvchi-talabalarni o'z nuqtai nazarini boshqalarniki bilan taqqoslash va isbotlashga majbur etadi. Umumta'lim va iqtisodiy hamda maxsus fanlar predmetlari o'qituvchisining butun ish faoliyati yagona uslubiy mavzu – “Iqtisodiy ta'lim sifati kafolati” asosiga qurilmog'i lozim.

O'qituvchi uchun eng qiyini o'quvchi-talabaning nimani bilishini aniqlash. Maxsus fanlar o'qituvchilari har yangi o'quv yilining sentyabrda birinchi kurs o'quvchi-talabalari bilimini tekshirib ko'radi va ularning maktab yoki kasb-hunar kollejida olgan bilimlarini baholaydi. Topshiriqlar ma'lum standart asosida tayyorlanadi. Nazorat ishlari test xarakterida beriladi. Olingan ma'lumotlar asosida o'quvchi-talabalar bilimidagi kamchiliklar aniqlanadi. Natijaga asoslanib, qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etiladi, o'quvchi-talabalarga alohida maslahatlar beriladi. Ularni ishga jalb etish, bilimga qiziqtirish uchun o'qituvchi o'z zaxirasida har bir mavzu bo'yicha o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni fikrlashga o'rgatuvchi o'ziga xos dars modellariga ega bo'lishi kerak, nafaqat ega bo'lish, balki ayni guruhda, ayni aniq sharoitda va ayni kasbiy faoliyatda ulardan qaysi biri ko'proq foyda keltirishini bexato bilishi zarur. Bunda o'zi va o'quvchi-talabalarning imkoniyatini hisobga olishi kerak.

3. Tadbirkorlikning rivojlanish tendentsiyalari va uning qishloq xo'jaligida tutgan o'rni.

3.1. Qishloq xo'jalik sohasining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston industrial-agrar mamlakat bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasi mamlakat yalpi ichki maxsulotining 17 %ini ishlab chiqaradi va mehnatga yaroqli aholining 34 %ni ish bilan ta'minlaydi. Bugun 16 milliondan ortiq qishloq aholisining daromadlari qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 % sugorma dehqonchilik hisobiga tug'ri keladi. Bugungi kunda O'zbekistonda sug'oriladigan erlar maydoni 4,3 mln.ga bo'lib, ularning 55 % (2,3 mln.ga) nasoslar yordamida suv bilan ta'minlanadi. By esa sug'orish suvining tannarxini yanada oshiradi. Mavjyd sharoitlarda fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa erlaridan samarali foydalanish, maxsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish, respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport saloxiyatini yuksaltirish eng myxim ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Davlatimiz raxbari Murojatnomasida suvdan foydalanish printsiplarini qayta ko'rib chiqish, mazkur sharoitlarga mos va maqbul tadbirlarni topish, tabiiy resurslardan foydalanishda eskirib qolgan qarashlardan voz kechish buyicha jamiyatda kechayotgan uzgarishlarga aloxida urg'u berdi.

O'zbekiston sharoitida kam suvli yillar turli tabablarga ko'ra tez-tez kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda bizning fikrimizcha O'zbekiston sharoitida suv tejamkorligi muammoni xal etishning asosiy va real yo'llaridan eng maqbuli xisoblanadi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish suvdan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlaridan birdir.

So'nggi 5 yil davomida mamlakatimizda suvni tejoychi sug'orish texnologiyalaridan tomchilatib sug'orish tizimlari - 43 mingga, ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish - 215 mingga, yomgirlatib sug'orish - 150 ga, agatlarga klyonka to'shab sug'orish

- 61 mingga maydonga joriy etildi.

Shunisi e'tiborliki, bu texnologiyalarni joriy qilish sur'atlari oxirgi ikki yilda sezilarli darajada ortdi. Jumladan tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy qilish yillik ko'psatkichlari 2017 yilda 2013 yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan qariyb 6 marta ortgan.

«2018-2019 yillarga mo'ljallangan rejalarni rivojlantirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish kompleks choralari dasturiga muvofiq» 2019 yilda Respublika bo'yicha 73,7 ming.ga maydondagi bog' va uzumzorlarda hamda 12,5 ming.ga g'o'za ekilgan maydonlarda tomchilatib sug'orish tizimi va boshqa suv tejankor sug'orish texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrda RQ-4087-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilariga tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy qilish uchun paxta xom ashyosi ekiladigan maydonning xar bir gektariga 8 mln. so'm subsidiya taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilariga tomchilatib sug'orish tizimlarini ko'rish, rekonstruktsiya qilish va ularning butlovchi qismlarini sotib olish uchun ajratiladigan kreditlar buyicha foiz xarajatlari tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasidan bir gektarga 20 mln. so'mdan oshmaydigan qismining 10 foizli miqdorida qo'llanadi. Byudjet mablag'larini oluvchilar bilan tuziladigan imrort shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish va ruyxatga olish talabi paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilari tomonidan tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish buyicha ishlar doirasida tuziladigan imrort shartnomalariga tatbiq etilmaydi. Paxta xom ashyosining maxalliy ishlab chiqaruvchilari, shuningdek tomchilatib sug'orish tizimi ishlab chiqaruvchilari tomonidan olib kiriladigan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish uchun zarur bulgan butlovchi qismlar va xom ashyo 2021 yilning 1 yanvariga qadar bojxona bojini tulashdan ozod etiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohasi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibi o'zgartirilmoqda. Mustaqillik davrigacha aholi ehtiyojlari uchun zarur xalq iste'mol buyumlari va ayniqsa oziq-ovqat maxsulotlari chetdan olib kelinar edi. Jumladan, 1990 yilda Respublikamiz aholisi ehtiyoji uchun zarur bulgan donning 82 %, go'sh tva gusht maxsulotlarining 50 %, sut va sut maxsulotlarining 60 %, kartoshkaning 50 %, shakar va ko'puk sutning xammasi boshqa respublikalardan keltirilgan. Mustakillik yillarida bunday achinarli xolatga barxam berish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning tarkibi o'zgartirildi. Asosiy e'tibor qishloq xo'jaligida oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish ishlariga qaratildi.

G'oz ekin maydonlari qisqartirilib, bu maydonlar xisobiga sabzavot, poliz, bog' va uzmzorlar maydoni kengaytirildi. Shy bilan birga, fermer xo'jaliklarining er maydonlarini avval foydalanilmay yotgan lalmi erlar xisobiga kupaytirish ishlari amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlarning natijasida bugun yurtimizda axoli iste'moli uchun zarur bo'lgan tabbiy meyorlarga nisbatan 2-3 marataba ko'p miqdorda meva, sabzavot, uzum etishtirilmoqda [23, 175].

Shy bilan birga, chorvachilik maxsulotlari etishtirishda jiddiy muammolar mavjudligini ko'rish mymkin. Shu sababli 2017 va 2018 yillarda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustaxkamlash yuzasidan, ayniqsa chorvachilik sohani jadal rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilandi.

Yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning strategik yunalishlaridan biri balikchilik tarmogini rivojlantirish xisoblanib, Prrezidentimizning 2018 yil 6 aprelda «Baliqchilik tarmogini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida»gi qarori bilan «O'zbek baliqsanoat» uyushmasi tashkil etildi va 2018-2023 yillarda baliqchilik sohasida innovatsion rivojlantirishga doir chora tadbirlar dasturi qabul kilindi.

**Respublikada aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq, xo‘jaligi maxsulotlari
ishlab chiqarish dinamikasi, kg.**

3.1.1- j a d v a l

| Maxsulotlar turi | 200 | 2010 | 2015 | 2016 | 2017 |
|---------------------|------|-------|-------|-------|-------|
| Don | 158, | 254,4 | 259,5 | 257,4 | 223,6 |
| Kartoshka | 25,5 | 58,2 | 85,6 | 92,2 | 85,7 |
| Sabzavot | 106, | 218,1 | 321,5 | 351,3 | 313,5 |
| Poliz | 18,2 | 40,6 | 58,8 | 63,7 | 62,3 |
| Meva | 31,9 | 58,8 | 87,2 | 94,8 | 80,2 |
| Uzum | 25,2 | 33,9 | 50,1 | 54,1 | 49,9 |
| Go’sht tirik vaznda | 36,7 | 50,2 | 64,5 | 67,7 | 70,1 |
| Sut | 146, | 211,9 | 286,6 | 302,2 | 308,2 |
| Tuxum, mln. dona | 50 | 105 | 176 | 192 | 194 |
| Baliq etishtirish | - | - | 1,9 | 2,03 | 2,6 |

Prezidentimiz raxbarligida amalga oshirilayotgan isloxlarning mohiyatida mamlakat agrar sohasida mavjud barcha imkoniyatlarni ishga tushirish siyosati yotibdi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda asalarichilikni rivojlantirish xam muxim omillardan xisoblanishini inobatga olib, Prezidentimizning 2017 yil 16 oktyabrdagi «Respublikamizda asalarichilik tarmog’ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug’risida»gi pq-3327-son qarori bilan «O‘zbekiston asalarichilari» uyushmasi tashkil etildi. Asal maxsulotlari ishlab chiqarishni 2017 yildagi 15,4 ming tonnadan 2021 yilga borib 23.7 ming tonnage etkazish choralari belgilandi.

2018 yilning 23 martida qishloq xo‘jaligida isloxlarni ko‘paytirish va tarmoqni jadal rivojlantirish masalalariga oid yig‘ilishda Prezidentimiz tomorqa erlari oziq – ovqat maxsulotlari etishtirishda katta imkoniyatga ega ekanligini ta’kidlab, ularga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida «Tomorqa xizmati» ni tashkil etish topshirigini berdi. Albatta «Tomorqa xizmati» korxonasi yurtimizda oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish xajmini keskin ko‘paytirishga xizmat qiladi.

2018 yilning 16-18 may kunlarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-

ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 31-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Unda BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti Bosh direktori Joze Gragany da Sirva ishtirok etib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustaxkamlash borasida Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan izchil isloxoatlarga yuqori baxo berdi va bu boradagi ishlarni qullab-quvvatlashga doimo tayyor ekanligini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi mustaxkamlash maqsadida 2018 yildan boshlab meva-sabzavot maxsulotlariga buyurtma berish va davlat extiyolari uchun xaridi yo'lga quyilishi sohani jadal va barqaror rivojlantirishning mustaxkam asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu tartib bir tomondan meva-sabzavot ishlab chiqaruvchilarga etishtirilgan maxsulotni kafolatli sotish imkonini bersa, ikkinchi tomondan oziq-ovqat sanoati korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlanish imkoniyatini kengaytiradi.

Olib borilayotgan isloxoatlar natijasida birgina 2018 yilning uzida O'zbekiston meva, sabzavotlari 54 ta davlatga eksport qilindi va Bangladesh, Filippin, Suriya, Iordaniya va Makedoniya kabi davlatlarning yangi bozorlariga kirib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 yanvarda imzolangan «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari tug'risida»gi PF-5303- son Farmoni bilan bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat maxsulotlari bilan to'ldirish, axolining xarid imkoniyatlarini mustaxkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, mazko'r soxadagi mavjud tizimli muammolarga barxam berish chora-tadbirlari ishlab chikildi. Oziq-ovqat maxsulotlarini imrort qilish buyicha ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga takdimetilgan individyal bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar hamda preferentsiyalar 2018 yilning 1 favralidan bekor qilindi.

Mazkur qoida bozor munosabatlari talabiga mos qoida bo'lib, oziq-ovqat maxsulotlarini import qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlariga teng imkoniyatlar yaratadi, sohada sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Davlat-xususiy

shirikchilik asosida ixtisoslashtirilgan omborxonalar, muzlatish kameralari, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash buyicha zamonaviy yuqori texnologik- uskunalar urnatildi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashda issiqxonalar- ni rivojlantirish muxim omil bo'lib xizmat qiladi. Issiqxonalar yil davomida 3-4 marta hosil olish imkoniga ega. Suv tejamkorligi yuqori, issiq xonalar tabi-at injiqliklaridan deyarli to'liq ximoyalangan. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda «Limon etishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» va «Yongoq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmalari tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega. 2018-2021 yillarda 28801 tonna limon etishtirilishi va 21695 tonna limon eksport qilinishi belgilab quyildi.

Yuqoridagilar asosida alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz rahbarligida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimini islox qilish, er va suv resurslaridan samarali foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan.

3.2. Viloyatda kichik tadbirkorlikning rivojlanish darajasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etilmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining sur'atlarini oshiradi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi, iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shuyil bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Unaqa iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda va, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham

lokomativ o‘rin tutmoqda. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgan sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi [24, 415].

Davlatimiz rahbari tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” – 2018 yil Davlat dasturida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi:

Birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining manfaatlarining xyqyqiy himoya qilish ushbu soha rivoji uchun yo‘loq berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilishi masalasi diqqat markazida bo‘lishi darkor;

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay sharoitni yaratishdan iborat.

Ma‘lumki, oxirgi yillarda tadbirkorlik sohasida o‘z ishini ochish uchun ruxsat olish, soliq, moliya va statistika organlariga hisobot topshirish masalalarini tartibga solish bo‘yicha ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. Ayni paytda kichik biznes syb’ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta‘minoti va boshqa shy kabi muhandislik kommunikatsiya sohalariga aylanishi yoki ularni qurishda ishtirok etishi uchun ruhsat olish tartib-qoidalarini soddalashtirish masalasi bo‘yicha ham qo‘shimcha chora–tadbirlar belgilanishi va ularning ijrosi qat’iy nazoratga olinishi darkor;

Uchinchi muhim masala kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq to‘lovlari borasida qo‘laylik va engilliklar yaratish bilan bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, kichik biznes sub’ektlariga ishlab chiqarishni imodernizatsiya qilish va texnologik yangilash uchun o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan kreditlar berish tizimini yanada takomillashtirish, mavjud muammolar echimi bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur;

Beshinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishtirok etishi, ularning eksport salohiyatini oshirish,

mintaqa va jahon bozorlariga chiqishini kengaytirish muammosini hal etishga jiddiy ahamiyat qaratish lozim;

Oltinchidan, sanoat sohasida yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish sohaslarini tashkil etishda, innovatsion va nano texnologiyalar, xam ankologiyava farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar atyganda, ilg'or ilm-fan natijalariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik amalga oshirishga keng yo'lochib berish szarur.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyat iuning iqtisodiyotida raqobat myhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot etqazib berish va xizmatlar ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini yaratish, va ikkilamchi bandlarni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqishiga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromad darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi [6, 330].

O'ziga xoslik yillarida kichik biznes sub'ektlari mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhum omili ekanligi ko'p tasdiqlandi.

2009 yilda mamlakatimizda 940 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini tashkil etilgan bo'lsa, shundan qariyb 400 mingta kichik biznes sohasiga to'g'ri kelgan. 2011 yilda esa 950 mingdan ortiq yangi isho'rinlari yaratildi.

Aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yaratilgan ish o'rinlari fermer xo'jaliklari bilan birga hisoblaganda 600 mingdan ortiqni yoki 65 foizni tashkil etdi. 2011 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mamlakatimiz iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 74,3 foizi faoliyat ko'rsatdi. Bu kichik biznes sohasi aholi bandligini ta'minlash va yangi isho'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim o'rin egallashni ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o'rganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oyida Tog' kon sanoati v va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan5 337,3 mlr .o'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat

mahsulotlarining 98,0 % ga o'sganligini ko'rsatadi. Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha tabiiy gaz va xom neftqazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 97,7 % ga va boshqa tog'-kon sanoati faoliyati esa 103,2 % ga oshganini kuzatish mumkin [3].

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1523,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 10,7 % ni) tashkil etdi. 2018 yilning yanvar-dekabr oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini mahsulotlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 111,3 % ga ko'paygan [2].

Keng ko'lamli islohotlar samarasida mamlakatimizning barcha hududlari qatori Qashqadaryo viloyati ham izchil taraqqiy etmoqda. Qashqadaryo mamlakatimizning eng yetakchi viloyatlardan sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotga sanoatning ulushi 38 foizni tashkil etayotgani ham shundan dalolat beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 9,5 foizini aynan shu viloyatga to'g'ri kelmoqda. Bu yerdagi "SHo'rtan neft' – gaz", "Muborakneft' – gaz" korxonalarini, "SHo'rtangaz – kimyo" majmuasi, Muborakgazni qayta ishlash zavodi, Tolimarjon issiqlik stansiyasi, "Hisorneft' – gaz" kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatining lokomotivlari hisoblanadi. Bu o'lkada yo'qnarsaning o'zi yo'q, desam, o'ylaymanki, yangilishmagan bo'laman. Yer osti boyliklari desangiz, eng muhim qazilma resurslari – neft, gaz, kaliy tuzlar, marmar va boshqa tabiiy zaxiralar shu yerda. Yer usti boyliklari desangiz, unumdor tuproq, tog' va daryolar, obod shahar va qishloqlar, noyob zavod va korxonalar ham shu yerda. Intellektual – ma'naviy boylik desangiz, bu borada ham Qashqadaryo beqiyos salohiyatga ega.

SH. Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatida olib borilgan tadqiqotlar natijasida oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturi doirasida amalga oshirilgan loyihalarni tahliliy nuqtai nazardan o'rganganimizda o'simlikchilik tarmog'ida 2016 yilda intensiv bog'lar yaratish bo'yicha 232 ta, yangi tokzorlarni yaratish bo'yicha 160 ta, fermer xo'jaliklarida issiqxonalar tashkil etish bo'yicha

67 ta, aholi tomorqalarida 159 ta, muzlatgichli omborlarni tashkil etish bo'yicha 40 ta, qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha 62 ta loyihalarni amalga oshirilgan.

Shuningdek, chorvachilik tarmog'ida, ya'ni qoramolchilikda 753 ta, parrandachilikda 163 ta, baliqchilikda 142 ta, asalarichilikda 149 ta, qo'ychilik 167 ta, echkichilikda 75 ta loyihalar amalga oshirilgan.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 147,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2018 yil yanvar dekabr oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 263,9 % ga ko'paygan.

Kichik biznes va xususiy biznesning o'zaro hamkorligi doimo har bir

Zamonaviy demokratik davlatning diqqat e'tiborida bo'lgan. Keyingi yillarda butundunyoda iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy 2018 yilning 4-choragida 14196,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o'sish sur'ati o'tgan yilning shudavriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 66,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib umumiy xajmga nisbatan 0,5 % tashkil etsada, nodavlatsektorida 14130,3mlrd. so'mlikmahsulot ishlab chiqarilib, umumiy xajmga nisbatan 99,5 % tashkil etdi. Xususiy sektor davlatsektor Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko'lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning 4-choragida 14196,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o'sish sur'ati o'tgan yilning shudavriga nisbatan 105,7 % ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan Iqtisodiy faoliyat turlari

bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog'-konsanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati 98,0 % ga, qayta ishlash sanoati 110,0 % ni, elektrenergiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo 111,3 % ni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bilan bo'yicha xizmatlar 263,9% ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p muborak tumani (Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 29,4 % ulushini), G'uzor tumani (20,8 %), Qarshishahar (12,1 %), Nishontumani (10 %), Qarshitumani (5 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoatmahsuloti hajmini tumanlar aro hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatda sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 14196,6 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti xajmi aholi jonboshiga 4463,1 ming.so'mni yoki o'tgan yilning mosdavriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi axoli jonboshiga 906,3 mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mosdavriga nisbatan o'sish sur'ati 100,0 % ga yetdi

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2017 yilning yanvar

dekabr oylariga nisbatan (102,0 % ga) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 20,3 % ni tashkil etdi.

Yetkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 55,2 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1244,8 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 43,2 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 47,0 mlrd. so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 1,6 % tashkil etdi. Shuning bilan birga eng kam ulush Muborak (1,6%), G'uzor (2,5%), Nishon (5,0%) tumanlariga to'g'ri keladi. Bunda Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Qarshi tumani (198,0 %)da, shuningdek Kitob tumani (115,2 %) va Qarshi shahrida (113,4 %) kuzatilmoqda.

Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Qarshi va Kitob tumanlari (104,5 %), Yakkabog' tumani (104,0%) va Shahrisabz tumanlarida (102,7) kuzatilgan Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi va natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 % oshishi ta'minlandi. Dastlabki, ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oyida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 21,4 % ni tashkil etgan. Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Chiroqchi (73,3 %), Yakkabog' (70,2 %) va Shahrisabz (67,8 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak (1,6 %), G'uzor (2,5 %), Nishon (5,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Qashqadaryo viloyatida 13 ta tuman (G'uzor, Dehqonobod, Qamashi, , Qarshi, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shaxrisabz, Yakkabog'), 1 tashaxar (Qarshi) mavjud bo'lib, 2017 yilning 1 yanvar holatida aholi soni 3089,4 ming kishi, shundan shahar aholisi 1326,6 ming kishini, qishloq aholisi 1762,8 ming kishi tashkil etmoqda. Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 28,6 ming kv.km. bo'lib, shundan jami haydaladigan yerlar 679144 gektarni tashkil etadi, shundan sug'oriladigan yerlar 420523 gektarni, lalmikor

yerlar 258621 gektarni tashkil etadi. Viloyat miqyosida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulot hajmi bo‘yicha tahliliy o‘rganishlarimiz natijasida shunga amin bo‘ldikki, 2017 yil yarim yillik holat bo‘yicha yalpi mahsulot xajmi 2008511,6 mln so‘m ni tashkil etgani holda, 2016 yilga nisbatan 106,1 foiz hisobida o‘shirishga erishilgan.

Joriy yilning 9 oyida Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 10 trillion 630 milliard so‘mdan ziyodni, o‘shirish sur‘ati 6,5 foizni tashkil etdi. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 62,3 foizga yetdi.

Mamlakatimizda jalb etilayotgan investitsiyalarning 11,2 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etilishi, ish o‘rinlari ko‘payib, aholining turmush farovonligi hamda daromadining yanada oshishiga zamin yaratmoqda [3].

3.3. Qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faolyatining rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z saylov oldi dasturida mamlakatimizda rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy – iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, huquqni muhofaza qilishda ochiqlik va oshkorlikni ta‘minlash, bu borada fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini keng qo‘llash, 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko‘paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatni ulushini 40 foizga yetkazish, iqtisodiyotimizning jaxon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyaviy faollikni kuchaytirishga 52 doir strategik maqsadlar o‘z ifodasini topgan.

Koson tumanida xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni

3.3.1.-jadval

| Ko‘rsatkichlar | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarish, % |
|---------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|---|
| Umumiy soni: | 1673 | 1693 | 1652 | 1811 | 108,25 |
| shundan: | | | | | |
| Kichik biznes | 1386 | 1407 | 1332 | 1443 | 104,11 |
| a) Kichik korxonalar | 102 | 84 | 51 | 59 | 57,84 |
| b) Mikro firmalar | 1284 | 1323 | 1281 | 1384 | 107,79 |
| Yirik tijorat korxonalar | 13 | 13 | 13 | 9 | 69,23 |
| Boshqalar | 274 | 273 | 307 | 359 | 131,02 |

Koson tumanida 2018 yilda 1811 xo‘jalik yurituvchi subyektlar ruyxatga olinib, 2015 yilga nisbatan 8.2 foizga oshgan. Shundan kichik biznes korxonlari 2018 yilda 1443 birlikni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 4,1 foizga ko‘paygan. Shundan kichik korxonalar keyingi turt yilda 48 foizga kamayib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Mikro firmalar esa 7.7 foizga ko‘paygan. Yirik tijorat korxonalarlari esa 30 foizga kamayib ketgan. Boshqa turli tarmoq korxonlari esa oshib borgan.

Koson tumani aholisining tarkibi (ming kishi) 3.3.2.-jadval

| Ko‘rsatkichlar | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarish,% |
|--------------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--|
| Aholisoni | 261,1 | 266,8 | 272,4 | 278,2 | 106,5 |
| shundan: | | | | | |
| erkaklar | 131,9 | 134,9 | 137,7 | 140,8 | 106,7 |
| ayollar | 129,2 | 131,9 | 134,7 | 137,4 | 106,3 |
| Shahar aholisi | 135,7 | 139,2 | 142,5 | 145,6 | 107,3 |
| shundan: | | | | | |
| erkaklar | 68,7 | 70,5 | 72,1 | 73,8 | 107,4 |
| ayollar | 67,0 | 68,7 | 70,4 | 71,8 | 107,2 |
| Qishloq aholisi | 125,4 | 127,6 | 129,9 | 132,6 | 105,7 |
| shundan: | | | | | |
| erkaklar | 63,2 | 64,4 | 65,6 | 67,0 | 106,0 |
| ayollar | 62,2 | 63,2 | 64,3 | 65,6 | 105,5 |
| Mehnatgalayoqatli aholi | 140,6 | 143,2 | 146,2 | 149,3 | 106,2 |

Koson tumanida ishlab chiqarish korxonalarining sohalar bo'yicha ulushi tahlil qilinganda savdo va qishloq xo'jaligining ulushi yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi 2018 yilda 20 foizni, savdo sohasidagi korxonlarining ulushi esa 25.4 foizni tashkil qilgan. Kichik biznes korxonalarining ulushi esa qishloq xo'jaligida 25.1 foizni, savdo korxonlarining ulushi esa 32.2 foizni tashkil qiladi. Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar ulushi exsarpast darajada. Jumladan agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonlarining tashkil etilishi darajasi kamayib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, koson xalqining aksariyat qismi qishloq xo'jaligi bilan band. Qogan qismining ko'pchiligi savdo tarmog'ida faoliyat ko'rsatadi.

Koson tumanida xozirgi kunda 278.2 ming kishi istiqomat qiladi. 2015 yilga nisbatan esa 6.5 foizga ko'paygan. Shundan erkaklar 2018yilda 140.8 ming kishini tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 7.4 foizga oshgan. Ayollarning o'sish darajasi 7.2 foizni tashkil qilgan. Aholining 53 foizi erkaklarni va 47 foizi ayollarni tashkil qiladi. Shahar aholisining usish darajasi 2015-2018 yillarda 7.3 foizni tashkil qilib, qishloq aholisining o'sish darajasidan yuqori. Qishloq aholisi 47.6 foizni, shahar aholisi 52.4 foizni tashkil qiladi. Mehnatga layoqatli aholi esa 2018yilda 149.3 ming kishini tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 6.2 foizga o'sgan. Jami aholining 53.7 foizini tashkil qiladi.

Koson tumanida agrosanoat mahsulotlari turlari bo'yicha ishlab chiqarish

3.3.3-jadval

| Ko'rsatkichlar | o'lchovbirligi | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilganisbatano'zgarish, % |
|------------------|----------------|----------|----------|----------|----------|---|
| Paxtatolasi | ming. tn | 25,1 | 24,5 | 22,7 | 21,2 | 84,3 |
| O'simlikyog'i | ming. tn | 17,9 | 18,4 | 16,6 | 16,4 | 91,7 |
| Xo'jaliksovuni | tonna | 636 | 224,0 | 96,0 | 197,0 | 31,0 |
| Non | ming.tn | 1,9 | 2,3 | 3,1 | 3,2 | 168,4 |
| Makaronmaxsuloti | tonna | 457,6 | 1347,5 | 733,1 | 750,0 | 163,9 |
| Sutmahsulotlari | ming. tn | 0,7 | 0,2 | 0,4 | 0,5 | 71,4 |
| Saryog' | tonna | 4,2 | 5,1 | 12,7 | 13,0 | 309,5 |

Koson tumanida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta shlovchi agrosanoat korxonalaridan asosan paxta va g‘alla mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalari ko‘proq rivojlangan. Paxta xomashyosini qayta ishlash natijasi dapaxta tolasi, o‘simlik yog‘i, xo‘jalik sovuni ishlab chiqariladi. Paxta tolasi ishlab chiqarish 21.2 ming tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 15.7 foizga kamaygan. 2018 yilda o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish 16.4 ming tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 8.3 foizga kamaygan. Xo‘jalik sovuni ishlab chiqarish esa 70 foizga kamayib ketganligini ko‘rsatadi. Nonmahsulotlari ishlab chiqish 2018 yilda 3.2 ming tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 68.4 foizga oshgan. Makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 2018 yilda 750 tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 63.9 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Sut mahsulotlari ishlab chiqish 2018 yilda 0.5 ming tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 28.6 foizga kamaygan. Saryog‘ ishlab chiqarish esa 2018 yil. 13 tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan.3.1 marta oshgan.

Koson tumanida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi

3.3.4.-jadval

| Ko‘rsatkichlar | o‘lchovbirligi | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilganisbatano‘zgarish, % |
|--|-----------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|--|
| Qishloqxo‘jalik yalpi mahsuloti | mlrd. so‘m | 338,3 | 401,3 | 1437,3 | 1659,9 | 490,7 |
| shujumlardan: | | | | | | |
| Dehqonchilik mahsulotlari | mlrd. so‘m | 179,2 | 231,7 | 684,9 | 690,9 | 385,4 |
| Chorvachilik mahsulotlari | mlrd. so‘m | 153,5 | 164,0 | 752,4 | 969,0 | 631,2 |

Koson tumanida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning yalpi qiymati 2018 yilda 1659.9 milliard so‘mni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 4.9 marta oshgan. Shundan dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2018 yilda 690.9 milliard so‘mni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 3.8 marta oshgan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi esa 2018 yilda 969.0 milliard so‘mni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 6.3 marta ko‘paygan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Koson tumanida dehqonchilik mahsulotlari

ishlab chiqarishdan ko'p chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarish sur'ati yuqori. Bundan kelib chiqadiki, koson aholisining aksariyati jumladan shahar aholisi ham chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Koson tumanida qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarish sur'ati

3.3.5-jadval

| Ko'rsatkichlar | o'lchovbirligi | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilganisbatano'zgarish, % |
|---------------------------------|----------------|----------|----------|----------|----------|---|
| Dehqonchilikmahsulotlari | | | | | | |
| Kartoshka | tonna | 1169 | 1287 | 1439 | 1288 | 110,2 |
| Sabzavot | tonna | 45409 | 55683 | 59897 | 42485 | 93,6 |
| Roliz | tonna | 22866 | 23743 | 27742 | 24823 | 108,6 |
| Meva | tonna | 8203 | 11040 | 12999 | 11230 | 136,9 |
| Uzum | tonna | 1276 | 2107 | 2047 | 1477 | 115,8 |
| Chorvachilikmahsulotlari | | | | | | |
| Go'sht | tonna | 21776 | 22043 | 22409 | 22178 | 101,8 |
| Sut | tonna | 86744 | 118571 | 153213 | 162194 | 187,0 |
| Tuxum | mingdona | 42310 | 46361 | 49499 | 44464 | 105,1 |
| Jun | tonna | 853 | 892 | 897 | 962 | 112,8 |
| Qorako'iteri | dona | 53970 | 54647 | 57172 | 56313 | 104,3 |

Koson tumani dadehqonchilik maxsulotlari ishlab chiqarish sur'ati yuqoridarajadaemas. Jumladan, sabzavotmahsulotlari 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 6.4 foizga kamayib ketgan. Faqatgina meva yetishtirishda 36.9 foizga o'sish mavjud. Kartoshka, poliz, uzum yetishtirishda o'sish darajalari 10-15 foizni tashkil qiladi. Chorvachilikda sut ishlab chiqarish xajmi 2018 yilda 162194 tonnani tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 87.0 foizga oshgan. Jun ishlab chiqarish 2018 yilda 962 tonnani tashki lqilib, 2015 yilga nisbatan 12.8 foizga oshgan. Gusht,tuxum, qorakulteri yetishtirishda 2015-2018 yillarda o'sish darajasi past.

Koson tumani iqtisodiyot tarmoqlarida kichik korxonlarining ulushi turlicha taqsimlangan. Kichik korxonalarining ulushi 2015-2018 yillarda o'sish darajasida ko'p o'zgarish bo'lmasada, qishloq xo'jaligi va savdo sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi yuqori.

Koson tumani iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik

biznesning ulushi

3.3.5-jadval

(foizda)

| Iqtisodiyot tarmoqlari | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil |
|---|----------|----------|----------|----------|
| Iqtisodiyotdagi kichik biznesning sohalari bo'yicha ulushi | | | | |
| Sanoat | 30,7 | 31,0 | 33,6 | 28,6 |
| Qishloq xo'jaligi | 98,5 | 100,0 | 100,0 | 99,5 |
| Investitsiya | 42,1 | x | 33,6 | 30,7 |
| Qurilish | 49,5 | 44,4 | 39,7 | 50,7 |
| Savdo | 88,1 | 87,6 | 89,7 | 90,8 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 16,8 | 0,3 | 48,3 | 30,0 |
| Eksport | 8,2 | 0,5 | 14,9 | 24,0 |
| Import | 72,5 | 0,5 | 82,8 | 31,8 |
| Kichik biznesdagi band bo'lgan aholi | 85,1 | 85,6 | 84,8 | 86,5 |

Tashqi savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi 2018 yilda 30 foizni tashkil qilib, 2015 yilganisbatan 14 fozga oshgan. Koson kichik korxonalarida band bo'lgan aholi 2018 yilda 86.5 foizni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kichik biznesning ulushi yuqori bo'lgan korxonalarida aholining asosiy qismi band.

Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati

3.3.6-jadval

| Ko'rsatkichlar | o'lchov birligi | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2018 yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarish, % |
|--|-----------------|----------|----------|----------|----------|---|
| Eksport tarkibi | mingdol. | 22940,6 | 25834,0 | 4217,3 | 2874,0 | 12,5 |
| Meva-sabzavot | mingdol. | 4799,3 | 1561,1 | 1691,5 | 1166,8 | 24,3 |
| Import tarkibi | mingdol. | 3548,6 | 2269,5 | 4086 | 9204 | 259,4 |
| Meva-sabzavot | mingdol. | 1808,2 | 830,2 | 640 | 1666,4 | 92,2 |
| Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar | birlik | 1 | 1 | 1 | 4 | 400,0 |

Koson tumanida ishlab chiqarilgan maxsulotlardan faqatgina meva-sabzavot maxsulotlari eksport qilingan, shuningdek qishloq xo'jalik maxsulotlaridan meva-

sabzavotlar import qilingan. 2015-2018 yillar davomida eksport xajmi 75 foizga kamaygan. Importxajmi esa 7.8 foizga kamayganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Koson tumani yer fondi tarkibi

3.3.7-jadval

(mingga.)

| Ko'rsatkichlar | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil |
|---|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| Mavjud umumiy yer maydoni | 187,2 | 187,2 | 187,2 | 187,2 |
| Jami qishloq xo'jalik korxonasi va tashkilotlari egalik qilgan hamda vaqtincha foydalanadigan yer maydoni | 143,5 | 143,5 | 143,5 | 143,4 |
| Haydaladigan yerlar | 73,5 | 73,5 | 73,3 | 73,2 |
| Shujumladan: | | | | |
| Sug'oriladigan yerlar | 61,6 | 61,6 | 61,6 | 61,3 |
| Ko'pyillik daraxtzorlar | 2,4 | 2,4 | 2,2 | 2,2 |
| shundan: | | | | |
| Bog'lar | 0,9 | 0,9 | 0,7 | 0,7 |
| Tokzorlar | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| Tutazorlar | 1,4 | 1,4 | 1,4 | 1,4 |
| Ko'chatzorlar | x | x | x | 0,04 |
| Bo'z yerlar | 1,3 | 1,2 | 1,2 | 2,5 |
| Yaylovlar | 65,5 | 65,5 | 65,4 | 65,4 |
| Bundan tashqari aholi tomorqa yerlari (ekin yerlari) | 8,7 | 8,7 | 8,8 | 8,8 |

Koson tumanining umumiy yer maydoni 187.2 ming gektarni tashkil qilib, keying turt yilda o'zgarmagan. Qishloq xo'jalik korxonlari va boshqa tashkilotlar egallab turgan va foydalanilgan yer maydonlari 73.5 ming gektarni tashkil qilib, shundan sug'oriladigan yerlar 61.6 ming gektardan iborat. Ko'p yillik daraxtzorlar 2.4 ming gektarni tashkil qilib, ularning tarkibida bog'lar, tokzorlar, tutzorlar va ko'chatzorlarni tashkil qiladi. Koson tumani yer maydonining 35 foizini yaylovlartashkil qiladi. Bundan tashqari aholi tomorqa yerlari 8.8 ming gektardan iborat

3.4. Qishloq xo‘jaligida kichik korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari.

Respublika agrosanoat kompleksi tarkibidagi sohalarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o‘zaro bog‘lanishi, ya’ni integratsiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoatkompleksi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan, cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishini ta’minlashga, texnika va texnologiyalarni amalga oshirishga, ishlab chiqarish faoliyatlarini mexanizatsiyalashtirishga, avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda sohalarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ular talabdarajasida amalga oshirilishi natijasida xaridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste’molchilarga sifatli va qulay usullar bilan etkazib borilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta’minlanishi darajasi ortib, majmya tarkibidagi sohalarning foydalari ko‘payadi. Natijada agrosanoat kompleksining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat kompleksining iqtisodiy samaradorlik darajasini qator ko‘rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin.

Jumladan, agrosanoat kompleksining yalpi mahsuloti majmua tarkibidagi sohalar korxonalari bir yil mobaynida ishlab chiqargan tayyor mahsulot va ko‘rsatgan xizmatlar miqdoridan tashkil topadi. Yalpi mahsulotning miqdori har bir soha bo‘yicha absolyut, ya’ni natural ko‘rsatkichlar yordamida hisoblanadi (tonna, dona, banka, litr, shishaidishda, tonna.km, et.gektar.). Bu ko‘rsatkich yordamida agrosanoat kompleksidagi sohalar yalpimahsulotining miqdori alohida-alohida aniqlanib, avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslanib, sohalarning qanday holatdaligi aniqlanadi. Masalan, qishloq xo‘jalik mashinasozligi korxonalari 1997 yilda 2852 dona traktor, 1049 dona paxta terish mashinalari ishlab chiqargan bo‘lsa, 2009 yilda tegishlicha 954 donadan ishlab chiqargan. Bu raqamlar shu muddatda soha mahsulotlarining kamayib borayotganligini

isbotlaydi. Shu yillarda qishloq xo'jaligida g'alla etishtirish 2,1 mln. tonnadan 5,2 mln. Tonnaga etgani uning hajmi 2,5 martaga oshganligini ko'rsatadi. Natijada non va nonmahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi. Paxtaxomashyosi etishtirish hajmi 1991-2007 yillarda 4,1 mln. tonnadan 3,5 mln. tonnaga tushgan, ya'ni 20 foizga kamaygan. Shuning natijasida paxta tolasining miqdori ham 1,2 mln.tonnadan 1,05 mln. tonnaga tushgan yoki 12,5 foizga kamaygan. Bunday hol o'simlik yog'i, sovun ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelgan. Shu yillarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarish nisbatan oshgan.

Lekin bu natural ko'rsatkichlar agrosanoat kompleksining umumiy holatini ifodalayolmaydi. Buning uchun agrosanoat kompleksi yalpi mahsulotining qiymatini aniqlash lozim. Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning birnecha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida, agrosanoat kompleksining barcha sohalarida yaratilgan qo'shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir [25, 148]. Chynki qo'shilgan qiymat – bu, korxonada tomonidani shlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati (amortizatsiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan so'ng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir. Majmya yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi salmog'ini aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va o'zgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat kompleksi yalpi mahsulotining respublika yalpi milliy mahsulotidagi salmog'I o'sayotgan bo'lsa, yalpi milliy mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat kompleksi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda hisoblangan qiymatidan shu yildagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni, Jumladan, ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat kompleksi iqtisodiyotining qator yillardagi o'zgarishini aniqlash uchun uning yalpi mahsuloti qiymatini o'zgarmas, ya'ni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 1996 yildagi o'rtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati

aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat kompleksi yalpi mahsuloti qiymatining o'zgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa ko'rsatkichlar darajasiga baholar o'sishining ta'siri bartaraf etiladi. Agrosanoat kompleksi yalpi mahsulotining 1996 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati ko'rsatkichidan foydalangan holda agrosanoat kompleksida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sig'imi kabi ko'rsatkichlar darajasini aniqlab, ularning o'zgarishini ham bilib olish, bu ko'rsatkichlarni majmua tarkibidagi sohalar miqyosida aniqlab, ularning o'zgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat kompleksining sohalarini bo'yicha mamlakat eksportidagi, ya'ni valyuta tushumidagi salohiyati, ya'ni ulushi. Uni bilish uchun agrosanoat kompleksi sohalaridagi korxonalarining eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi naq tushumlarining bir yillik yig'indisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida ko'rsatish uchun AQSH dollariga davlat ko'rsiga binoan aniqlash lozim, kelajakda o'z mavqesini oshirib borayotgan evroda ham hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'yicha qishloq xo'jaligi bilan «O'z paxtasanoat» uyushmasining salmog'i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxtatolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste'mol uchun tayyor hisoblangan xalq iste'moli tovarlari eksportga chiqarilishini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida sabzavot, poliz hamda bog'dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham chetellarga sotishni amalga oshirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi.

By muammoni hal etish faoliyatida Respublikada qayta ishlash sohalarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi, savdo sohalarining taraqqiyoti ta'minlanadi. Aholining oziq – ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu ko'rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun

agrosanoat kompleksida ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotilgan mahsulotlar (turlari bo'yicha) miqdorini respublika aholisining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jonboshiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi. Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot meyorlariga yaqinlashsa, y holda bu aholining yashash sharoiti yuksalayotganligidan, xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat kompleksi, sohalari va korxonalarida foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning samaradorligi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat kompleksining yalpi mahsulotini, milliy mahsulotini hamda soffoyda symmasini ishlab chiqarish fondlariga, xarajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari, xarajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda soffoyda symmasi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshibborsa, u holda bu fondlarning, xarajatlarning iqtisodiy samradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat kompleksi sohalarining, korxonalarining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun sohalarning, korxonalarining soffoydasini jami xarajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat kompleksining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda birqancha qo'shimcha ko'rsatkichlardan, Jumladan, sohalar bo'yicha birkishining o'rtacha oyligi, kadrlarning bilimlilik salmog'i, aholi jonboshiga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Eslatib o'tish kerakki, respublikada go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tish bosqichining dastlabki yillarida anchaga qisqargan edi. Lekin 1999 yildan boshlab bu sohada ham o'zgarishlar bo'lmoqda. Umuman olganda, agrosanoat kompleksining faoliyati asta – sekin rivojlanib bormoqda. Natijada ayrim sohalarining iqtisodiy samaradorligi yuksalmoqda.

4. Nazariy dars o'tish metodikasi

4.1. Nazariy ta'lim berishning asoslari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim jarayoni mazmunini tubdan isloh qilish, yaxshilash, uni bozor munosabatlari asosida tashkil qilish bilan yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy mutaxassis kadrlar tayyorlashga erishish mumkin. Shu maqsadda bu sohadagi chet el tajribalarining eng maqbul tomonlarini hisobga olgan holda o'quv jarayoniga o'qitish tizimlari, modellari, dasturlari, o'qitishining texnik vositalari, kommunikasion axborot texnologiyalari joriy qilinmoqda. Shu tariqa chet el ta'lim tizimiga moslashishga imkoniyat yaratib, boshqa mamlakatlar oliy ta'lim tizimida o'quvchilar almashinishiga zamin yaratilishga erishilmoqda.

Kasb-hunar ta'limida o'quv rejasi va dasturi o'quv jarayonini aniq tashkil etishning asosi bo'lib, u didaktik tamoyillarga to'la-to'kis mos keladigan bo'lishi lozim. Har bir o'qituvchi ta'lim rejasi va dasturini bajarishni, o'quv materiallarining mazmuniga to'liq javob beradigan ta'lim topshiriqlarini, bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori darajada bo'lishi uchun javobgardir. Nazariy darsni asosiy maqsadi – o'quvchilarga o'rgatiladigan fanni asosiy nazariy qismini tushuntirishdan iborat. Bunda didaktikaning ilmiylik tamoyiliga asoslanadi. Nazariy dars o'tishda asosan fanlararo bog'liqlikka katta e'tibor berish kerak.

Kasb-hunar kollejlarida nazariy ta'lim berish jarayoni odatda, 2 soatlik darslarda qo'llaniladi. Nazariy dars o'tishda o'qituvchining roli katta. O'qituvchi bayon qilayotgan materialning isbotlanganligi, isbot va dalillarning chuqurligi o'quvchilarda nazariy ta'lim olishlarida katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Nazariy ta'lim berishda tarbiyaviy ishlarga ham e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

O'quv dasturlari aniq fan bo'yicha o'qitishning mazmunini, ayni fanning hajmini va uni o'rganish tartibini belgilaydi. O'quv dasturlarini mazmuni qo'yidagicha: bob va mavzular bo'yicha bilim, o'quv, malakalar hajmi, fanni o'rganish tartibi, har bir fan uchun belgilangan vaqt, ayni fan bo'yicha darsliklar va qo'llanmalar.

4.2. Muammoli ta'lim texnologiyasi va undan foydalanish

Muammoli ta'lim texnologiyasi – bu o'quv materialini talaba ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatishga qaratilgan texnologiyadir. Ta'lim jarayonida talabaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular ob'ektiv ravishda izlanishga va mantiqiy to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga da'vat etadi.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha to'plangan tajribalar asosida muammoli o'qitishning mohiyati va mazmuni haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin. Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, talabalar o'zlari muammoni mustaqil echishga kirishishlari kerak. Shu sababli ham talaba uchun materiallar va topshiriqlar tizimi shunday tuzilishi kerakki, ular asosan, mustaqil fikr yuritishga va o'rganishga qaratilishi lozim.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etishda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni talabalar ongiga etkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida olgan bilimlarini amalda tadbiiq etishi, ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi, to'ldirishi, boyitishi, o'zgartirishi, o'zining mustaqil nuqtai-nazariga ega bo'lishi talab etiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan. J.Dyui muammoli ta'lim texnologiyasi asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan:

- ijtimoiy;

- konstruktiv;
- badiiy ifodaviy;
- ilmiy-tadqiqot.

Ma'lumki, muammoli ta'limning maqsadi “ilmiy bilish, bilimlar tizimi natijalarini o'zlashtirishgina emas, balki natijalarga erishish yo'lini ham o'zlashtirishdir”

Muammoli ta'limdan foydalanib o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda quyidagilar rejalashtiriladi:

- 1) o'rganiladigan mavzuning maqsad va vazifalari, uni muammoli ta'lim vositasida o'rganish imkoniyatlari;
- 2) mavzuni o'rganishda talabalarga beriladigan muammoli savollar yoki topshiriqlar mazmuni;
- 3) talabalarning muammoli topshiriqlarni echishga xizmat qiluvchi, avvalgi o'rgangan bilim zaxiralari;
- 4) muammoli topshiriqlarni hal etishga yordam beruvchi talabalarning ko'nikma va malakalari;
- 5) topshiriqlarni echishga qanday ko'rgazmali qurollar, vositalar kerak bo'lishi;
- 6) muammoli topshiriqlarni echish natijasida bilim va malakalarning taxminiy hajmi;
- 7) qilingan ishlar va ularning natijalaridan qanday xulosalar chiqarish lozimligi haqidagi ishlar.

Haqiqatdan ham, muammoli o'qitish texnologiyasi ta'limning eng samarali texnologiyalaridan bo'lib, unga ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar kiritilib, o'quv materiali an'anaviy shaklda bayon etiladi.

Demak, muammoli vaziyatlar talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga asoslangan bo'lib, ular ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish, boshqa materiallarni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslangandir. Agar, har qanday pedagog muammoli dars o'tishni istasa, avvalambor, muammoli vaziyatlarni yaratish yo'llarini bilishingiz kerak bo'ladi.

4.3. Nazariy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi

Ta'lim berish texnologiyasi modeli (4.3.1-jadval)

| | |
|---|---|
| Vaqt: 2 soat | Talabalar soni 25 ta |
| O'quv mashg'ulotining shakli va turi | Nazariy |
| Mashg'ulot rejasi | <ol style="list-style-type: none"> 1. Qishloq xo'jalik sohasining o'ziga xos xususiyatlari 2. Viloyatda kichik tadbirkorlikning rivojlanish dapajasi 3. Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faolyatining rivojlanishi 4. Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: | Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish;</p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risida tushuncha berish;</p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish.</p> | <p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini bayon qiladilar;</p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risida tushuncha beradilar;</p> <p>Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha bilimlarini shakllantiradilar.</p> |
| Ta'lim usullari | Nazariy, ko'rgazmali va boshqalar |
| Ta'lim shakli | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim vositalari | Ma'ruza matni, texnika vositalari va jihozlar |
| Ta'lim berish sharoiti | Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar |
| Monitoring va baholash | <p>Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar.</p> <p>Yozma so'rov: referat, test va boshqalar.</p> |

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (4.3.2-jadval)

| <i>Ish bosqichlari va vaqti</i> | <i>Faoliyat</i> | |
|--------------------------------------|---|---|
| | <i>Ta'lim beruvchi</i> | <i>Ta'lim oluvchilar</i> |
| I-bosqich. Kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi | Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. |
| II-bosqich. Asosiy (60 daq.) | 2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Nazariy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi. | Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar |
| III-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi. | O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar |

4.4. Nazariy dars o'tish metodikasi

Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi

Darsning turi: Nazariy mashg'ulot

Dars uchun ajratilgan vaqt: 2 soat

Darsni o'tish joyi: Maxsus jihozlangan o'quv xonasi

O'qitish uslubi: Ko'rsatmali –tushuntirish

Darsning jihozlanishi: Mavzuga tegishli materiallar, moduli, o'qitishning texnik vositalari – proektorlar, qorong'ilatish moslamalari, slaydlar, tarqatma material, ishchi va nazorat varaqalari

Darsning maqsadi

Asosiy maqsad: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi haqida zaruriy ma'lumotlarni o'quvchilarga ko'rgazmali tushuntirish, tayanch iboralarni o'quvchilarga yozdirish va mavzuni puxta o'rgatish

Tarbiyaviy maqsadi: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligining zaruriy ahamiyatini tushuntirish; ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqada bo'lishini; ahloqiy tarbiya ko'nikmalarini o'quvchilarga o'rgatish

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini shakllantirish, tanlangan kasblariga qiziqish uyg'otish

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

1. O'quvchilar bilan salomlashish

2. O'quvchilar davomatini aniqlash
3. Auditoriya va o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish

O'qituvchi darsga kirgandan so'ng avvalom bor, o'quvchilar bilan salomlashadi, o'quvchilarni darsga ishtirok etishlarini aniqlaydi va auditoriyani dars o'tishga tayyorgarligini ko'zdan kechiradi. Darsni boshlashdan avval o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshiradi.

II. O'tilgan oldingi darsni o'quvchilardan so'rash

1. Oldingi darsda o'tilgan mavzusini so'rash. So'rash quyidagi uch ular orqali amalga oshirilishi mumkin:

- a) tayyorlab kelingan maxsus savollarni tarqatib;
- b) test savollari orqali;
- v) og'zaki savolar orqali.

2. O'quvchilar bilimini baholash.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Oldingi o'tilgan mavzuni so'rash muhim ahamiyatga ega. Mavzuni so'rashda o'tilgan mavzu qisqa va aniq hamda ravshan, fktlarga asoslanganligiga e'tibor berish lozim. Berilgan savollarga javob bergan o'quvchilarga baho qo'yishda ularning ayrim jihatlariga e'tibor berish lozim. Masalan, savol-javobning to'g'rililiga, o'quvchi o'zini tuta bilishiga, nutqiga, ishlatadigan so'zlariga, xatti-xarakteriga va boshqa jihatlariga va hakozi. Ularni baholashda iloji boricha yuqori ball qo'yish kerak. Bu o'quvchini shu fanga nisbatan qiziqishini, hurmatini oshiradi va ko'proq o'rganishga intilishiga olib keladi.

III. Oldingi o'tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash

Yangi mavzuni o'tishdan oldin o'qituvchi oldingi o'tilgan mavzuni takrorlab, uni yangi mavzu bilan bog'lashga harakat qilishi lozim. Shundagina o'quvchilar yangi mavzuni tushunib olishlari oson kechadi.

IV. Yangi mavzuni bayon etish

Yangi mavzuni bayon etishdan oldin u doskaga yozib qo'yiladi. mavzuni o'tish rejalari ham iloji bo'lsa, darsning oxirigacha saqlanmog'i lozim. Doskada yozilgan yozuvlar iloji bo'lsa, rang-barang va rangli, chiroyli terilgan shaklda bo'lishi lozim.

Reja:

1. Qishloq xo'jalik sohasining o'ziga xos xususiyatlari
2. Viloyatda kichik tadbirkorlikning rivojlanish dapajasi
3. Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faolyatining rivojlanishi
4. Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu tushuntirilgandan so'ng, o'quvchilardan tushunmay qolgan joylari va savollar berilishi so'raladi. Berilgan savollarga aniq, qisqa, to'la ravishda javob qaytariladi. Buning uchun kamida 3...5 minut vaqt ajratiladi.

Agar o'quvchilar tomonidan savollar berilmasa o'qituvchi yangi mavzuni o'quvchilar tushunganliklarini tekshirib ko'radi.

VI. Uyga vazifa berish

Uy vazifalarini tanlaganda, ularni o'quvchilarga topshiriq qilib berishda, bu vazifalar o'quvchilarning qiziqishlariga mos kelishi, ularni bajarishda qiyinchiliklarga uchramasliklari kerak. Ko'pincha o'quvchilarga o'qituvchi tushuntirgan materialni mustahkamlashga oid vazifalar beriladi.

VII. Darsga yakun yasash

Darsning oxorida o'rganilgan materiallar bo'yicha umumiy xulosalar qilinadi. Darsga yakun yasaladi. Kelgusi mashg'ulotga doir tarqatma materiallar tarqatiladi. Kelgusi mashg'ulotning mavzusi o'quvchilarga etkaziladi.

5. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish metodikasi

5.1. Amaliy mashg'ulot darslarni tashkil etish

Amaliy mashg'ulot xonalari o'quv faniga moslab jihozlangan va fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar, ta'limning zamonaviy texnik vositalar, xona derazalarini qorong'ulatish moslamalari va jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Xonani jihozlashda ahloq didlarga e'tibor berish lozim. Amaliy mashg'ulot xonalari devorlariga ko'rgazmalar umumiy devor yuzasiga nisbatan 20% bo'lishi lozim.

Har bir amaliy mashg'ulot tashkiliy va kirish qismdan, topshiriqlarni bajarish yuzasidan talabalarni mustaqil ishlari va yakuniy qismlardan iborat bo'ladi.

Seminar, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun metodik tayyorgarlik ko'rishni tahlilily ish rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tayyorgarlik ishlari
2. O'qitish metodini tanlash
3. O'qitish metodikasini ishlab chiqish
4. Natijalarni belgilash

Seminar mashg'uloti-bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Amaliy mashg'ulotlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Mashg'ulot zaminida nazariya bilan amaliyot birligi didaktik tamoyili yotishi lozim.
2. Darsda o'quvchilarda faollik va har bir ishga nisbatan ongli munosabat hosil qilinmog'i lozim.
3. Dars jarayonida o'quvchilar imkoni boricha mustaqil ishlashlari kerak.
4. Amaliy mashg'ulotlar o'qitishning interaktiv metodlari asosida tashkil etilishi shart.
5. Amaliy mashg'ulot mavzusi o'quv dasturiga mos bo'lishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda ongli bajaradilar.

5.2. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi

Ta'lim berish texnologiyasi modeli (amaliy mashg'ulot)

| | |
|--|---|
| Vaqt: 2 soat | Talabalar soni 25 ta |
| <i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i> | Amaliy mashg'ulot |
| <i>Mashg'ulot rejasi</i> | 1.Qishloq xo'jalik sohasining o'ziga xos xususiyatlari 2.Viloyatda kichik tadbirkorlikning rivojlanish darajasi 3.Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faolyatining rivojlanishi 4.Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> | Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishtirish; Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risida tushuncha berish; Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish. | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini bayon qiladilar; Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi to'g'risida tushuncha beradilar; Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha bilimlarini shakllantiradilar. |
| <i>Ta'lim usullari</i> | Muammoli o'qitish, Aqliy hujum, ko'rgazmali va boshqalar |
| <i>Ta'lim shakli</i> | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash |
| <i>Ta'lim vositalari</i> | Ma'ruza matni, texnika vositalari va jihozlar |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar. |

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)

| <i>Ish bosqichlari va vaqti</i> | <i>Faoliyat</i> | |
|--------------------------------------|--|--|
| | <i>Ta'lim beruvchi</i> | <i>Ta'lim oluvchilar</i> |
| I-bosqich. Kirish (10 daq.) | <p>1.4. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.5. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p> <p>1.6. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p> | <p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.</p> |
| II-bosqich. Asosiy (60 daq.) | <p>2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi.</p> <p>2.2. Amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.</p> | <p>Javob beradilar</p> <p>Yozadilar</p> <p>Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar</p> |
| III-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | <p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi.</p> | <p>O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar.</p> <p>Savol beradilar</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p> |

5.3. Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida amaliy mashg'ulot o'tish metodikasi

Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi

Mashg'ulot turi: Amaliy mashg'ulot

O'qitish metodi: Muammoli ta'lim texnologiyasi

Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt: 2 soat

Mashg'ulotni o'tkazish joyi: Maxsus jihozlangan iqtisodiy fanlar auditoriyasi

Mashg'ulotning metodik ta'minoti: Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar, talabalarni dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatmali materiallar, muammolar, matnlar, axborotlar

Mashg'ulotning maqsadi

Asosiy maqsad: O'quvchilarga Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumatlar berish, mustaqil fikrlash, qaror qabul qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy mashg'ulotga faol ishtirok etish, ongli munosabatda bo'lish va mavzuni tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish, kasbga qiziqish uyg'otish

Muammoli amaliy mashg'ulot tashkil qilinadi – o'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni echimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Darsning tarkibiy elementlari

Muammoli amaliy mashg'ulot tarkibiy strukturasi ega:

1. Tayyorlov
2. Mavzuni ishlash
3. To'g'ri echimni topish
4. Yakun yasash, tahlil qilish baholash

Mashg'ulot yuqoridagi bosqichlarda belgilangan vaqtlar ichida o'tkaziladi.

I. Tashkiliy qism

1. O'quvchilar bilan salomlashish
2. O'quvchilarni darsga qatnashish davomatini aniqlash
3. O'quv auditoriyasi va o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish

O'qituvchi darsga kiringandan so'ng, avvalom bor, o'quvchilar bilan salomlashadi, ularni darsdagi ishtirokini aniqlaydi va o'quv auditoriyasini dars o'tishga tayyorgarligini ko'zdan kechiradi. Darsni boshlashdan avval o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshiradi, kayfiyat va psixologiyalarini o'rganadi va darsga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.

II. Mashg'ulotni borishi

I-bosqich. Tayyorlov. O'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'quvchilarni mashg'ulotni nomi va maqsadi bilan tanishtiradi.
2. Mashg'ulotni maqsadini belgilaydi, maqsadni aniq ifoda etadi.
3. Natija va baholash mezonini shakllantiradi.
4. Talabalarni mashg'ulotni tartibi bilan tanishtiradi.
5. O'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuga doir muammoni, masalani o'rta tashlaydi.
6. Mashg'ulot uchun zaruriy asos yaratiladi.

II-bosqich. Mavzuni ishlash. Bu bosqichda o'quvchilar faol ishtirok etadilar va quyidagi vazifalarni bajaradilar.

1. Berilgan muammo va masalalar talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi.
2. Talabalar o'z fikrini erkin ifodalashadi.
3. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini oydinlashtiradi.
4. Boshqalarni fikri tinglab o'rganiladi.
5. Har bir bildirilgan fikr qayd etib boriladi.

III-bosqich. To'g'ri echimni qabul qilish. Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1. Har bir guruh a'zosi fikri tahlil qilinadi.
2. Yanglish fikrlar bilan asosli fikrlar o'zaro taqqoslanadi.
3. Muammo bo'yicha echim qabul qilinadi.

IV-bosqich. Yakun yasash tahlil qilish va baholash. Bunda quyidagilar bajariladi.

1. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga yakun yasaydi.
2. Guruh a'zolari tomonidan berilgan javoblarni umumlashtiradi.
3. Qo'yilgan muammo masalani aniq echimini ifoda etadi.
4. O'quvchilar faoliyatini baholaydi.
5. Kelgusi mashg'ulot mavzusi va mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi.

III. Uyga vazifa berish

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganish.
2. Nazariy mashg'ulotlardan olingan bilimlarni yana takrorlash.
3. Kelgusi amaliy mashg'ulotga puxta tayyorlanib kelish.

IV. Darsga yakun yasash

Darsning oxirida o'rganilgan materiallar bo'yicha umumiy xulosalar qilinadi. Darsga yakun yasaladi. Kelgusi mashg'ulotga doir tarqatmali materiallar tarqatiladi. O'quvchilarga sog'lik va salomatlik tilab, kelgusi mashg'ulotga uchrashguncha xayrlashiladi.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishda “Qishloq xo’jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi” mavzusini muammoli ta’lim texnologiyasi asosida o’qitish metodikasi ishlab chiqildi. Bitiruv malakaviy ish mavzusi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kasb-hunar ta’limi jarayonida dars mashg’ulotlarini noan’anaviy, ya’ni interaktiv metodlar asosida tashkil etishga, ulardan unumli foydalanish orqali berilayotgan materialning tez tushunib idrok qilinishi bilan bir qatorda, ta’lim jarayoni sifat va samaradorligini oshirishdagi dolzarb masalani echishga qaratildi.

1. Dars mashg’ulotlarida qo’llaniladigan muammoli ta’lim texnologiyasi dars jarayonida berilayotgan o’quv materialini o’quvchilarning puxta o’zlashtirishiga yordam beradi, ularning fikrlash faoliyatini o’stiradi, har narsani bilishga ishtiyoq uyg’otadi.

2. Ta’limning texnik vositalari asosida tashkil etilgan dars mashg’ulotlariga muammoli ta’lim texnologiyasi qo’llanilsa dars yanada samarali va tushunarli bo’lib, dars jarayonida o’quvchilar faolligini sezilarli darajada oshiradi.

3. Ta’lim jarayonida muammoli ta’lim texnologiyasi o’kuv materialini egallash jarayonida ukuvchilarni fikrlash va bilish faoliyatiga undaydi.

4. Pedagogik texnologiyaning muammoli ta’lim texnologiyasidan kuyidagicha foydalaniladi: o’kituvchi ukuv materialini kayta tushuntirishda, ukuvchilar faol bilish va amaliy ishlar jarayonida mustakil bilim xamda kunikmalarni egallashlarida.

5. Muammoli ta’lim texnologiyasidan darsning xar xil boskichlarida: bilimlarni dastlabki urganishda, mustaxkamlash va takomillashtirishda, kunikma, malakalarni shakllantirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Dars mashg’ulotlarida muammoli ta’lim texnologiyasi muntazam qo’llanilsa o’quvchilar tomonidan o’tilayotgan material puxta o’zlashtirilishiga, uzoq vaqt xotirasida saqlanishiga, idrok qilish vaqtini qisqartirishga zamin yaratiladi.

7. Pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlikda axborot texnologiyalari qo'llanilsa darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalaniladi, talabalar diqqatini o'quv materialiga jalb qilish osonlashadi va talabalarda fanga nisbatan ijobiy munosabatlarini tarkib toptiriladi.

8. Pedagogik texnologiyani qo'llashning yana bir muhim ahamiyati shundaki, komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash bilan birga, ularning keyingi faoliyatlarida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish malakalari shakllantiriladi.

9. Kollej ta'lim jarayonida ko'llaniladigan pedagogik texnologiyalar o'qitishning texnik vositalari asosida olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Bu ukuvchilarning zamonaviy texnika vositalaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib, texnik ijodkorlik tafakkurlarini o'stiradi.

Tahlillar qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni ta'minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik syb'ektlarini samarali faoliyatiga halal berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki mymkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;
- hydyddagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lymotlar qisqa myddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik syb'ektlariga taqdim etilishi faoliyatlarini samarali tashkil etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qylay myhit yaratish borasida har bir hydyddagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni safarbar qilish;
- hydyddagi kichik biznes syb'ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minotiva shy kabi myhandislik-kommunikatsiya sohalariga ulanishi faoliyatlariga e'tibor qaratish hamda by boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

- mahallalarda oilaviy biznesni amalga oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash; shy asosda oilaviy biznesni tashkil qilishning namynaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;
- hydyda faoliyatyuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik syb'ektlarinig faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xysysan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish sohalarini tashkil etishda, ilg'or ilm-fan natijalariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni amalga oshirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab torish;
- hydyddagi eksrortga mahsulot chiqaryvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik syb'ektlariga yordam ko'rsatish va rag'batlantirish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mystahkam iqtisodiy sohaga aylanishi ta'minlash lozim.

Kollej ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni beraman:

- kollej o'quv auditoriyalarini zamonaviy ta'limning texnik vositalari bilan bugungi kun talabi darajasida jihozlash va bunda ko'rgazmali qurollar auditoriya umumiy moydonining 20% oshmasligiga erishish lozim;

- Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish lozim;

- Dars mashulotlariga muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llay oladigan, ulardan pedagoglik faoliyatida unumli foydalanishga qodir kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida viloyat xududlarida malaka oshirish markazlarining ishini jonlantirish maqsadga molik;

- O'quvchilarga amaliy mashg'ulot topshiriqlarini mustaqil bajarishlari uchun texnologik xaritalar berilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev “O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrigi” – Xalq so'zi, 2017, 30 oktyabr
2. Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.”Xalq so'zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.
3. Mirziyoyev SH.M. Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalk - farovon xayotning, dustona xamkorlik esa tarakkiyotning kafolatidir (Uzbekiston Respublikasi Konstituqiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2018 yil 7 dekabr).«Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 dekabr, № 253 (7211)
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T., 2003 y. 66-b.
5. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (daksluk). – T.: TDIY, 2004. – 304 b
6. Vohobov A.V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. T., «Moliya», 2002. 330 bet
7. Djymaqylov T.T., Safapova Z.G. Ispolzovanie tpydov I.Kapimova v ppedpodavanii ekonomicheskoy teopii i ego vklad v eepazvitie. T., «Abyali ibn Sino». 2002. 231 s.
8. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004, 64-79-betlar
9. Zunnunov A, Xayrullaev M., Pedagogika tarixi. T: «Sharq», 2000 y.
10. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T: «O'qituvchi», 1997 yil.
11. Komenskiy Ya.A., Buyuk didaktika, T., «O'qituvchi», 1975 y.
12. Kovalenko N.Y., Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YUPKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
13. Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil etish. – T.: O'qituvchi, 1981, 192-bet.

14. Mavlonova R, To'raeva O., Pedagogika. T: «O'qituvchi», 2001 y. 68-b.
15. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O'qituvchi», 1996 y.
16. Ochilov M. Muallim- qalb me'mori. T: « O'qituvchi», 2001 y.
17. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Q: «Nasaf» nashriyoti, 2000 y.42 b.
18. Pasylov M. Bozop iqtisodi asoslari. T., «O'zbekiston», 1997. 383 bet.
19. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. T: « O'qituvchi», 1997 yil.
20. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T. Fan. 2006. 90-93- betlar.
21. To'xliiev N. O'zbekiston Pespyblikasi iqtisodiyoti. T., «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 1998. 239 bet.
22. To'xliiev N., Taksanov A. Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. T., «O'qityvchi», 2000. 367 s.
23. Shodmonov SH., G'anixo'jaeva F. Bozop iqtisodiyotiga o'tish shapoitida ijtimoiy takpop ishlab chiqapish. T., «O'zbekiston», 1993. 175 bet.
24. Shodmonov SH., Alimov P., Jo'paev T. Iqtisodiyot nazapiyasi. T., «Moliya», 2015. 415 bet.
25. Ergashev R.X. va boshqalar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T., «Moliya», 2018.148 bet.
26. www.bearingpoint.uz
27. www.classis.ru/pages/classis/6/48/
28. www.finansy.ru/publ/mark Radio Tashkent International.
http://info.uzpak.uz/uzb/econom_uzb/

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Kirish | 4 |
| 1. Fan va mavzuning tavsifi | 7 |
| 1.1. Kasb-hunar kollejlarda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining tutgan o'rni va fanlararo bog'lanishi..... | 7 |
| 1.2. Tanlangan mavzuning dolzarbligi | 9 |
| 1.3. Kasb-hunar kollejlarda o'quv faoliyatini tashkil etish..... | 11 |
| 2. O'qitish metodikasining umumiy masalalari | 14 |
| 2.1. Didaktik jarayonni tashkil etishda talabalarning psixologik tayyorgarligi..... | 14 |
| 2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi pedagogik-psixologik tajribalar..... | 17 |
| 2.3. Talim jarayonida talabalar motivasiyasini oshirish zaruriyati..... | 20 |
| 2.4. Talabalar bilim darajasini oshirish omillari..... | 24 |
| 2.5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning ijtimoiy-psixologik tomonlari..... | 30 |
| 2.6. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari..... | 32 |
| 2.7. Muammoli ta'lim texnologiyasi..... | 38 |
| 2.8. Kasbiy yo'naltirilgan muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash bosqichlari va metodlari..... | 44 |
| 2.9. Ta'lim texnologiyasi tamoyillari..... | 48 |
| 3. Tadbirkorlikning rivojlanish tendentsiyalari va uning qishloq xo'jaligida tutgan o'rni | 52 |
| 3.1. Qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos xususiyatlari..... | 52 |

| | | |
|-----------|--|-----------|
| 3.2. | Viloyatda kichik tadbirkorlikning rivojlanish darajasi..... | 57 |
| 3.3. | Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faolyatining rivojlanishi..... | 64 |
| 3.4. | Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradoplugini oshirish yo'llari..... | 71 |
| 4. | Nazariy dars o'tish metodikasi..... | 75 |
| 4.1. | Nazariy ta'lim berishning asoslari..... | 75 |
| 4.2. | Muammoli ta'lim texnologiyasi va undan foydalanish..... | 76 |
| 4.3. | Nazariy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi..... | 78 |
| 4.4. | Nazariy dars o'tish metodikasi..... | 80 |
| 5. | Amaliy mashg'ulotni o'tkazish metodikasi..... | 83 |
| 5.1. | Amaliy mashg'ulot darslarni tashkil etish..... | 83 |
| 5.2. | Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi..... | 84 |
| 5.3. | Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida amaliy mashg'ulot o'tish metodikasi..... | 86 |
| | Xulosa va takliflar..... | 89 |
| | Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | 92 |